Bolagikda bosh miya o‘rganishga ko‘proq moyilmikan yoki ko‘proq moslashuvchanmikan — buni biz ko‘proq «egiluvchan (plastik)» deb ataymiz, va ulg‘ayganda qattiqlashib va bir joyda to‘xtab qoladimi? Balki bolalikda bola oladigan ma’lumotlar hajmi, ko‘lami va turi, ularga boshqalar tomonidan beriladigan erkalik va erkinliklar imkoni va rag‘batlantirish darajasi nuqtai nazaridan bolalarda til o‘rganish sharoitlari boshqachaligi ta’sir qilarmikan? Ikki ishda ishlaydigan va til o‘rganish kursiga kech soat 7:00 da boradigan yoshi katta kishi oladigan ma’lumot bola o‘z onasidan, buvisi, otasi va boshqa birlamchi tarbiyachilardan tinimsiz qabul qiladigan ma’lumotlarga nisbatan boshqacha bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Pirovard natijada esa, ehtimol, bolalikda va yoshi ulg‘ayganda til o‘rganganlar orasidagi farq moslanuvchanlik va sharoitlar kabi ikki omilning birga qorishib kelishida bo‘lsa kerak. Albatta, har bir alohida olingan shaxs va sharoitlarda ham farqlar mavjud. Turli odamlarga bir xil sharoit yaratilsa, ba’zilar gullab-yashnab ketadi va boshqalar esa qiynalib yuradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toxirova, M. O. Z. (2023). FIZIKA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN O‘ZARO ALOQADORLIGI VA FANLARARO BOG‘LANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 787-790.
2. Otaqo‘ziyevna, T. M. (2023). Fizika Ta’limi Mazmunini Takomillashtirish Va Samaradorligini Oshirishning Integral Pedagogik Texnologiyalari. Miasto Przyszłości, 42, 225-226.

3. Алиқулова, М. Ш. (2023). ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАССКАЗОВ АЛЕКСАНДРА КУПРИНА. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12 Part 2), 172-174.
4. Артыкбаева, З. А. (2015). Методика обучения решению геометрических задач. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (2-2), 59-63.
5. Artikbayeva, Z. A., & Egamova, G. A. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darsliklarida so 'z birikmasi yuzasidan berilgan bilimlar tahlili. Science and Education, 3(2), 734-739.
6. Allayarovna, A. Z. (2022). Using a Competency-Based Approach to Conducting Circle Classes in Mathematics Lessons. Journal of new century innovations, 15(1), 7-11.
7. Artikbayeva, Z., Abdumajitova, M., Umirova, M., & Jo'Rayeva, D. (2023). EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AS AN EFFECTIVE METHOD IN THE MEANINGFUL ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS. Science and innovation, 2(B3), 70-72.
8. Aliyeva, N., & qizi Shodiyeva, G. N. (2023). INGLIZ TILIDA SO 'Z TURKUMLARI TASNIFI MASALALARI SHARHI. SCHOLAR, 1(13), 22-27.
9. Navruza, A. (2023). INGLIZ TILI MORFOLOGIYASIDA SOZ TURKUMLARINI ORGANISH ZARURIYATI. ITALY" ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES"., 14(1).
10. Habibullaevna, A. N. Structural features of substantive, adverbial and verbal phrases in the English, Russian and Uzbek languages. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD).
11. Aliyeva, N. (2021). MODERN CONCEPTS OF STUDYING PHRASEOLOGISMS IN THE FRAMEWORK OF FRAME REPRESENTATION AND THEORY OF CONCEPTUAL METAPHOR. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 2(12), 206-211.
12. Aliyeva, N. (2021). ИЗОМОРФИЗМ АНГЛИЙСКИХ КОЛЛОКАЦИЙ И ФРАЗЕМ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ С УЧЕТОМ ПЕРЕХОДНОСТИ ЗНАЧЕНИЯ. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(2).

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

13. Zakirovich, G. B. (2023). ACCURACY AND FLUENCY IN LANGUAGE TEACHING. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(05), 19-25.

14. Gafurov, B. (2023). THE RELATIONSHIP BETWEEN CULTURE AND LANGUAGE IN LEARNING PROCESS. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5), 55-63.

15. Gafurov, B. Z. (2023). REFLECTION OF STYLISTICALLY MARKED VOCABULARY IN ADVERTISEMENT TEXTS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 425-428.

16. FAYZULLAEVA, S. U. THEMATIC DIRECTIONS OF THE NATURE OF THE LYRICAL EVENING. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (5), 157-159.

17. Nizomitdinova, Z. A. (2023). GENDER LANGUAGE IN MASS-MEDIA. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 646-648.

18. Nizomitdinova, Z. (2023). GENDER IN CONTEMPORARY LINGUISTICS. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(2), 124-126.

19. Низомитдинова, З. А. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. Journal of new century innovations, 36(1), 6-9.

20. Shagiyazovna, R. D., Khairullaevich, N. L., Akhatovna, A. D., Bahadyrovich, R. B., & Abduazizovna, N. Z. (2022). Technique of Meaning-Formulation and Construction Mental Interpretations in Russian Language. Specialusis Ugdymas, 1(43), 10583-10596.

21. Mallaevna, O. N. (2022). The process of forming pedagogical ethics in students and its efficiency.

22. Mallaevna, O. N. (2022). The process of forming pedagogical ethics in students and its efficiency.

23. Очилова, Н. М. (2017). СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К УРОКАМ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Ученый XXI века, 43.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

24. TimurRustamovich, A. (2023). CLASSROOM AND EXTRACURRICULAR FORMS OF STUDYING POETRY BY AS PUSHKIN AT SCHOOL. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 226-232.

25. Ayupov, T. (2024). METHODOLOGY FOR TEACHING FAIRY TALES AT SCHOOL. *Академические исследования в современной науке*, 3(1), 5-9.

26. Nazirova, M., Matmusayeva, Z., Asqarova, X., Olimova, S., & Ayupov, T. (2024). "BLACK CHICKEN, OR UNDERGROUND RESIDENTS" BY ANTONY POGORELSKY IN HISTORICAL AND LITERARY CONTEXT. *Development and innovations in science*, 3(1), 5-11.

27. Ayupov, T. R. (2023). METHODS OF TEACHING LITERARY FAIRY TALES IN HIGH SCHOOL. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 282-286.



**Research Science and
Innovation House**

TA'LIM SOHASIDAGI INTEGRATSION YONDASHUV

Murodjonova Mohlaroyim Ziyodjon qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya - alohida elementlarni yig'ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin. Shuningdek, ko'pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo'yicha fikr berganlar Hozirgi kunda “Integratsiya” tushunchasining aniq ta'rifi metodik adabiyotlarda, bu muammo bo'yicha shug'ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflarda berilgan. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy integratsiya, ta'lim integratsiyasi, didaktika, sub'ektiv, fabrikalar, o'zaro birlashish, ishlab chiqarish, bank.

KIRISH.

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zidan)— bu suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni. 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi;

3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish (qarang Iqtisodiy integratsiya) [1]

ASOSIY QISM.

Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya - alohida elementlarni yig‘ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin. Shuningdek, ko‘pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo‘yicha fikr berganlar Hozirgi kunda “Integratsiya” tushunchasining aniq ta’rifi metodik adabiyotlarda, bu muammo bo‘yicha shug‘ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’riflarda berilgan. Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir.

Ma’lumki, pedagogika fani yuksak aqliy salohiyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, shunga ko‘ra bugungi kunda davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan muhim me’yoriy hujjatlar - “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”da ko‘rsatib o‘tilgan barkamol shaxsni shakllantirish yo‘nalishlari, qonunyalari va tamoyillariga asoslangan holda keng ko‘lamli tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati vujudga keldi. Shu sababli pedagogika fani haqli ravishda davlat tomonidan fanning ustuvor sohalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o‘qitishda ularning integratsiyasini ta’minlashga yetarli e’tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o‘zaro bog‘liqlikni ta’minmagan holda o‘qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o‘quv rejalarida ushbu fanlarni o‘qitishning vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg‘unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan

bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda. Didaktika o'quv fanlarini integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar.

O'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma'noda integratsiya - fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin. O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi - sub'ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat. O'quv fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? - degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda.

XULOSA.

Ta’lim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o’n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O’quv jarayonida o’qituvchi bir yoki bir necha mashg’ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o’zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub’ektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo’ladi. Ya’ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.
2. Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1378-1383.
3. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. PsychologyandEducationJournal, 58(2), 1339-1345.
4. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
5. Xasanova, G. (2020). Мактабгача таълим ташкилотларида халк ОФзаки ижоди воситаларидан фойдаланишнинг педагогик мазмуни. Архив Научных Публикаций JSPI.

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN
FOSHDALANISH**

Yo‘ldosheva Shohista Baxtiyor qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limga kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlarini beradi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va oliy ta’lim bituruvchilari foydalanishi mumkin.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлены возможности для компетентностного подхода к начальному образованию. Его могут использовать учителя начального образования и выпускники высших учебных заведений.

ANNOTATION

This article provides opportunities for a competency-based approach to primary education. It can be used by teachers of primary education and graduates of higher education.

KALIT SO‘ZLAR

Didaktik o‘yin, dastur, o‘quv materiallari, idrok, zehn, tafakkur, o‘yin texnikasi, faollik, matematik nutq, kompetensiya, pedagogic texnologiya.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Дидактическая игра, программа, учебные материалы, восприятие, разум, мышление, техника игры, деятельность, математический дискурс, компетентность, педагогическая технология.

KEY WORDS

Didactic game, program, educational materials, perception, mind, thinking, game technique, activity, mathematical discourse, competence, pedagogical technology.

Didaktik o‘yinlar asosan ta’lim jarayonini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma’lumot berishni yengillashtirishga, ta’limda ko‘rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

o‘quvchilarni o‘quv materiallari bilan ortiqcha band qilib qo‘ymaslik imkoniyatini yaratadi. Dastur materiallarini o‘zlashtirishda bir qator qulayliklar tug‘diradi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini shakllantirishga, ayniqsa ularning sezgi a‘zolari (sezish, ko‘rish, tinglash va boshqalar) faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Bola miyasini „mashq“ qilishga, tafakkurini teranlashtirishga o‘rgatadi. Uning idroki, zehni, faxm-farosati, xotirasi, irodasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlanadi. Ziyrakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi, tashabbuskorligi oshib boradi. O‘quvchining iste’dodi, ijodiy qobiliyati namoyon bo‘la boshlaydi va olgan imkoniyatlarini o‘z faoliyatida, mehnat va o‘yinda sinab ko‘rish imkoniyati tug‘iladi, O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘yinlardan keng foydalanish lozim.

Didaktik o‘yinlarni darsda qo‘llash ta’lim-tarbiya jarayoniga noan’anaviy usulda yondashuvni ifodalab, an’anaviy usullardan bir qator sifatleri bilan farqlanadi. Ya’ni, o‘quv jarayonini bevosita qiziqarli o‘yinlar asosida tashkillashtirish, o‘quvchilarning birgalikda harakatini ta’minlash, masalaga guruh bo‘lib yondashish natijasida o‘quvchilarning birgalikda harakatini ta’minlash, masalaga guruh bo‘lib yondashish natijasida o‘quvchilarni faol harakatini va mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga sharoit yaratadi. Lekin bu harakatlar texnologik jihatdan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Bu bilimlarni nomoyon qilishlari uchun esa aynan o‘yin texnologiyalari vositasida tashkillantirilgan darslar alohida ahamiyatga ega. Biz quyuda o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan o‘yinlarni taqdim etdik. Taklif etilayotgan didaktik o‘yinlar ham ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bunga misol sifatida quyudagi o‘yin turlarini ko‘rsatib o‘tish mumkun: “Sayohat” o‘yini, “Qisqa muddatli yozma ish” o‘yini, “Erudit” o‘yini, “Yumoloqlangan qor o‘yini”, “Zakovatli zukko o‘yini”, “Obrazga kir oyini” va hakozi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarga axboratlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilar o‘rtasida muloqotga kirishish, diqqatni jamlash va o‘z navbatida, hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan muntazam ravishda foydalanish ta’limda tabiiy vaziyatni yaratadi. Bu esa o‘quvchilarni dars davomida erkin faoliyat ko‘rsatishlariga sharot tug‘diradi. O‘yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o‘quvchiga dars davomida berilayotgan ma’lumotlarni mustaqil o‘zlashtirishi hamda ijodiy tafakkuri shakllanishini

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

ta'minlaydi. O'yin o'quvchilarni yashirin imkoniyatlarini va fanga bo'lgan qiziqishlarini ochib beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik nutqini o'stirishda didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. O'quvchilarning matematik nutq boyligini oshirish, raqamlar va sonlarni to'g'ri talaffuz qilishda ham didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo'lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta'sir qudratiga egadir. Didaktik o'yinlar davomida bolalar jamoa bo'lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o'z navbatida erkin fikr yurita olishlari kuzatiladi. Ma'lumki 1-sinfqa qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti – o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. O'yin – bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof – muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his-tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi. Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi:

XULOSA

Eng yaxshi didaktik o'yinlar mustaqil ta'lim olish prinsipida tuzilgan, ya'ni shunday tuzilganki, ularning o'zi o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga qarab yo'naltiradi. Ma'lumki ta'lim olish ikkita komponentni o'zida

jamlaydi: kerakli ma'lumotni to'plash va to'g'ri yechimni qabul qilish. Bu komponentlar o'quvchilarda didaktik tajribani ta'minlaydi. O'qunchilarda bunday tajribaga ega bo'lishni ko'paytirish, ularni mustaqil ravishda bu ko'nikmaga ega bo'lish mashqlariga o'rgatishdan iboratdir. Bunga psixologik tavsifdagi rivojlantiruvchi o'yinlarni kiritish mumkin: krosvordlar, viktorinalar, boshqatirmalar, rebuslar va boshqa o'yinlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan muntazam ravishda foydalanish ta'limda tabiiy vaziyatni yaratadi. Bu esa o'quvchilarni dars davomida erkin faoliyat ko'rsatishlariga sharoit tug'diradi. O'yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o'quvchiga dars davomida berilayotgan ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishi va ijodiy tafakkurini shakllanishini ta'minlaydi. O'yin o'quvchilarni yashirin imkoniyatlarini va fanga bo'lgan qiziqishlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiya 2005 yil
2. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: «Fan» nashr., 2017.
3. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. – Qarshi: 2013.
4. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda matematika darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Toshkent: «Fan» nashr., 2017.
5. www.jdpu.uz
6. www.ziyonet.uz
7. www.edu.uz
8. www.lex.uz

BANDLIKNI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI

Shirinova Shahnoza Abdunabiyevna

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi

yo‘nalishi 2 - kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning samarador yo‘llari va tadbirkorlikni isloh qilish, yanada barqarorlashtirish va hozirgi kundagi xususiy korxonalarining o‘sgani, kichik biznes salohiyatining qay darajada ko‘tarilgani haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, barqarorlik, xususiy korxonalar, iqtisodiy o‘rish, samaradorlik, ishbilarmonlik, aholi bandligi.

Аннотация: В данной статье говорится о путях дальнейшего реформирования и стабилизации малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан, а также о росте частного предпринимательства на сегодняшний день, и в какой степени возрос потенциал малого бизнеса.

Ключевые слова: Малый бизнес, устойчивость, частное предпринимательство, экономический рост, эффективность, предпринимательство, занятость населения.

Mamlakatimizni rivojlantirishni 2017-2021 yillarga mo‘njallangan harakatlar strategiyasida kichik biznes oldiga juda keng ko‘lamli vazifalar qo‘ydi. Ushbu vazifalarni samarali tarzda yechish uchun kichik biznes sub'ektlarini boshqarishda innovatsion faoliyatga katta ahamiyat qaratilgan. Faol tadbirkorlikni amalga oshirish uchun ham innovatsion tadbirkorlik bo‘lishi kerak. Innovation faoliyat tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini tashkil qilishi kerak. Sharafli nomga ega bo‘lish uchun har qanday shaxs o‘z ustida ishlashi, yangiliklarni qidirish, yaratishi, izlanishi lozim. Bozor iqtisodiyotidagi keskin raqobat kurashida engib chiqib, yashab qolaman degan tadbirkor innovatsion faol bo‘lishi, innovatsion boshqaruvni amalga oshirishi kerak. Bu hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Innovatsiya –bu raqobat qonunidir, bozor

iqtisodiyotining o'ziga hos hususiyati bo'lib, u-siz bozor tizimi hech qachon rivojlanmaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta'minlamoqda. Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida” 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.

Faol tadbirkorlikni amalga oshirish uchun hamda innovasion faoliyatni jadal ravishda qo'llash uchun turli salohiyatga ega bo'lgan kichik biznes faoliyati sub'ektlari innovasion salohiyatini belgilashda quyidagilarga alohida e'tibor berishlari katta ahamiyatga ega deb hisoblaymiz:

1. Rag'batlardan keng miqyosda foydalanish
2. Imkoniyatlardan foydalanish
3. Turli cheklovlar va to'siqlarni bartaraf etish (1-rasm).

Kichik biznes sub'ektini boshqarayotgan mulk egasi o'z foydasini orttirish yo'lida tinmay izlanadi. Buning uchun, u sifatli, raqobatbardoshli yoki umuman yangi xil mahsulot turini ishlab chiqarishga harakat qiladi. Buning uchun u o'zidagi texnologiyani takomillashtiradi, innovatsiyalarni joriy etadi, ya'ni yangiliklarni qidiradi, topadi, o'z korxonasida qo'llaydi. Ushbu harakatlarning barchasi ma'lum xarajatlarni talab qiladi.

Faol tadbirkorlikni amalga oshirish omillari.



Ushbu harakatlarning barchasi ma'lum xarajatlarni talab qiladi. Shu bilan birgalikda, katta xarajatlarni qilib, bozorga olib chiqilgan mahsulotni bozorda yaxshi qabul qilmasliklari mumkin. U etarli miqdorda sotilmasdan, qilingan xarajatlar qoplanmasligi mumkin. Mahsulotning biron-bir hususiyati etarli darajada hisobga olinmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun har qanday tadbirkor har qanday yangi ishni, innovatsiyani amalga oshirish uchun ko'p marta o'ylashi, hisob-kitoblarni amalga oshirishi lozim. Shu bilan birgalikda, tadbirkorni innovasion tavakkalchilikka etaklaydigan bir kuch bor. Bu bozordagi raqobat kuchidir. Bozorda mahsulot ishlab chiqaruvchilar ko'pligidan, ular o'rtasida kuchli raqobat kurashi mavjuddir. Har bir ishlab chiqaruvchi ko'proq mahsulot sotishga harakat qiladi. Kimda-kim harakatni susaytirsa, xotirjamlikka berilsa, raqobatda yutqazib qo'yishi mumkin. Bunday xavf har qanday tadbirkorga doimiy ravishda yo'ldosh bo'ladi. Shu sababli, tadbirkorni innovasion faoliyatga undovchi kuch bo'ladi. Ana shu narsa – innovasion rag'batdir.

Kichik biznes sub'ektlarida innovasion loyiha ustida shug'ullanish uchun ma'lum imkoniyatlarga ham ega bo'lish talab qilinadi. Unda qandaydir o'ylab topilgan yangilik yoki ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi bo'lishi kerak. Tadbirkor qandaydir ilmiy muassasaga topshiriq berishi, ichki yoki tashqi bozordan tayyor lisenziya sotib olishi, patent tadqiqoti o'tkazishi mumkin. Muammo bo'lsa, olimlar va tadqiqotchilar bu muammo ustida ishlaydilar va echimini topishga harakat qiladilar. Shu sababli, tadbirkor o'z muammolarini ilmiy-tadqiqot muassasalariga etkazishi lozim. Bunday ishlarning hammasi tadbirkorda mablag'bo'lishini talab qiladi. Yaratilgan yangilikni joriy qilish uchun ham mablag'bo'lishi kerak. Yirik innovatsiyalarni amalga oshirish uchun kichik biznes sub'ektlarida mablag'etishmaydi. Shu sababli, kichik biznes sub'ektlariga o'zaro birlashishlari mumkin. Shu yo'l orqaligina bunday cheklashlarni engib o'tishi mumkin. Natijada yirik tadbirkorlik sub'ektlari tashkil topadi. Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo'jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning

yarmini ta'minlamoqda. Ko'pgina viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omilidir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo'llab quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Bularning barchasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka qaratilgan. Jumladan tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish soddalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida”gi qarori.

3. Д.А. Ендиновицкий, В.А. Бабушкин, Н.А. Батурина и др. Анализ инвестиционной привлекательности организации: научное издание/ М.:КНОРУС,2010.- 376с.

4. Бланка И.А. “Основы инвестиционного менеджмента” В 2 т. Спб; Ника – центр, 2001.

**Research Science and
Innovation House**

CMS PLATFORMALARI YORDAMIDA TA'LIMIY SAYTLAR YARATISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Toxtayev Jamshid Xamidjanovich

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Ta'limda axborot texnologiyalari

yo'nalishi 2 - kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish haqida so'z boradi. Ta'limiy platformalarni yaratish va uning foydali jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikasiya texnologiyalari, internet texnologiyalari, elektron ta'lim, elektron ta'lim resurslar, o'qitish, ta'limiy platformalar, innovatsion dasturlash.

Аннотация: В данной статье говорится об организации образовательного процесса на основе электронного образования, в том числе о внесении определенных изменений в принципы совершенствования подачи учебных материалов. Обсуждалось создание образовательных платформ и его полезные аспекты.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, Интернет-технологии, электронное обучение, электронные образовательные ресурсы, — обучение, — образовательные — платформы, — инновационное программирование.

Abstract: This article talks about organizing the educational process based on electronic education, including making certain changes to the principles of improving the presentation of educational materials. The creation of educational platforms and its useful aspects were discussed.

Key words: information and communication technologies, Internet technologies, e-learning, e-learning resources, training, educational platforms, innovative programming.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborotkommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to'xtovsiz kechmoqda.

Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir t o'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqoriroqdir (Means, Toyama, Merfi, Bakiya va Jons, 2013). Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir. Misol keltiradigan bo'lsak, Vang (2008) Tayvand davlatida 10 yil meditsina sohasida o'qib, onlaynda o'qitilayotgan tibbiyot bo'yicha video ma'ruzalar yordamida aholi orasida tibbiy xizmatni yaxshilanganligini aytadi. Yana bir misol, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shahrida joylashgan Chung- Ang universitetida har bir fan bo'yicha onlayn elektron sinfi (e-class) mavjud. Fanga qatnashishga ro'yxadan o'tgan talaba e-class ga ham kirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu e-classda nafaqat Microsoft Power Point dasturida qilingan prezentatsiyalar balki, video ma'ruzalar, uy vazifasi topshiriqlari ham mavjud. Mashg'ulotga ma'lum sabab bilan qatnasha olmagan yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmagan talaba e-class ga kirib video ma'ruzalardan foydalanishi mumkin. Bu albatta ta'lim olish samaradorligini yanada oshiradi va yetuk kadrlar tayyorlashga zamin bo'ladi degan fikrdaman. Axborot jamiyatiga o'tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o'tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, “global axborot afzalliklarini” teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi. Oxirgi yillarda elektron ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko'proq aniqlanmoqda. So'nggi vaqtlarda ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar an'anaviy ta'limning ba'zi turlariga qaraganda onlayn ta'limning afzalliklari ko'proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o'qitish platformalari ko'paymoqda, bunda an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta'lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta'lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta'lim

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

jarayonida murakkab texnologiyalarni qo‘llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo‘ladi. Bu tendensiyaga bo‘lgan qiziqish ta‘lim jarayonida talabalarga ta‘sir etadi va ta‘lim sifatini oshiradi. Ko‘pgina tadqiqotlar onlayn ta‘lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan, ya‘ni talabalarning mustaqil ta‘lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo‘ladi. Elektron ta‘limda rivojlanishini talabalarning raqamli dunyoda o‘zini erkin tutishi, ya‘ni kerakli ma‘lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko‘rishimiz mumkin. Vaqt o‘tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo‘llash asosida an‘anaviy ta‘limning hohlagan turi, metodi, ta‘lim berish usulini kiritishimiz mumkin.

Umuman olganda, hozirgi kunda jamiyatni standart sanoatlashgan iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o‘tishi kuzatilmoqda. Yangi iqtisodiyot mijozlari – foydalanuvchilar iqtisodiyoti hisoblanadi, shuning uchun jahon axborot va telekommunikatsiya sanoatini rivojlanishini asosiy omili keng ko‘lamda yangi avlod xizmatlarini taqdim etish bo‘lib kelmoqda. Ta‘limda fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o‘qishni, mustaqil masofaviy ta‘lim tizimi bilim olishni individuallashtirish, texnologiyasini ishlab chiqish va o‘zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida ETdan foydalangan holda talabalar o‘qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O‘quv jarayonini ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o‘quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma‘lum o‘zgartirishlar kiritish kerak bo‘ladi. Bunda ta‘lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo‘ldir. Ta‘lim tizimiga elektron axborot ta‘lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta‘lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ETni o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;
- o‘quv jarayoni uchun ET mo‘ljallangan ta‘lim texnologiyalarini yaratish va qo‘llash;
- talabalarni zamonaviy ET texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ETni joriy etish orqali ta‘lim tarbiya va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron axborot resurslari ta'limga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidan iborat bo'lib, u ta'limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

- ichki omillar — bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k

- tashqi omillar — bu ETning texnika uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi. ETdan foydalanish esa, ular bilan muloqotda foydalanuvchilarning ko'nikma va malakalariga bog'liq. Shuning uchun, dastlab zamonaviy telekommunikasiya vositalarining o'zi nimaligini bilib olish muhim sanaladi.

Axborotlashtirish soxasidagi davlat siyosati, axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlanish va takomillashuvining zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan. Soxalarda katta xajmdagi axborotlarni to'planishi, yaxlit axborot makonini vujudga kelishi, ularni saqlash, qayta ishlash, uzatish jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yishni bilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.

2.Muratov Xusan Holmuratovich. Implementation of independent educational activities of students. European journal of research and reflection in educational sciences. vol. 7 no. 12, 2019. issn 2056-5852. 25-25. 7.

3.Muratov Xusan Kholmuratovich; Abdulkhamidov Sardor Mardanaqulovich; Jabbarov Rustam Ravshanovich; Khudaynazarova Ugiloy Sharifovna and Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna. Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). International Journal of Psychosocial Rehabilitation ISSN:1475-7192. March 2020. Volume 24 – Issue 5. –pp. 2043-2048.

THE ROLE OF EDMUND SPENCER WITH ENGLISH AND UZBEK SPEECH CULTURE IN THE ART OF ENGLISH SPEECH

Sayfilloyeva Olima G‘anijon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Abstract: In this article, we will provide you with information about the English speech culture, as well as conduct a comparative study of it with the UZBEK language. Through our article, you will get acquainted with the work and brief life of Edmund Spencer, who made a significant contribution to the formation of the English speech culture, raised the English speech culture with his oratorical art, and was the author of several elegant poetic works.

Key words: English speech culture, speech etiquette, lexicon, means of communication, semantic unit.

Speech culture, first of all, following the norms of the correct, literary language is to speak. A high level of speech culture is indispensable for a cultured person is feature. It is the duty of each of us to improve our speech. Of this error in pronunciation, use of word forms, sentence construction we must watch our speech in order not to. [1;43-p]

Speech culture, speech etiquette: 1) norms of oral and written literary language (pronunciation, accent, vocabulary, grammar, stylistic rules) acquisition as well as the ability to use the figurative means of the language in accordance with the purpose and content of the speech in various communication –intervention situations; 2) the branch of linguistics that studies the problems of standardization (regulation) in order to perfect the language as a tool of culture. In Western linguistics, the term „language culture” is also used in a general sense. The concept of „speech culture “ in the 1st sense covers two stages of mastering the literary language: a) correctness of speech and other speech skills. The correctness of speech is adherence to literary standards perceived by speakers and writers of a particular language as „ideal “ or universally accepted and traditionally preserved customs, examples and examples. Speech skill is not only to follow literary standards, but also to choose the most correct, clearest, most appropriate and expressive in terms of style and situation from among the available options. Speech culture is a social phenomenon, which develops in close

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

connection with the development of society , science and technology, culture and literary life. As the cultural level of the members of the society increases , their speech becomes polished and polished , improving in accordance with the rules and norms of speech culture . Literature, art , radio, television and periodical press have a special place in the formation and development of speech culture . Lexicography , in particular , explanatory , spelling , pronunciation , educational and other special dictionaries are important in the standardization of literary language and the development of the theory of speech culture. The broad concept of culture is , of course , the culture of communication , the culture of speech behavior.[2;12-p]

Speech etiquette refers to the linguistic signs and rules of their use currently accepted in this society in order to establish a speech connection between interlocutors and ensure communication in an emotionally positive tonality in accordance with the speech situation. For example, Uzbek and English speech etiquette phrases : hello/hi , how are you ?how are you?, with my respect , let me introduce it is an honor to introduce ;welcome ,welcome/here you are ,nice appetite/bon appetite, with best wishes bread and salt, tea and sugar, God supposes; thank you, save Christ Help, please, let me express my deepest gratitude; be healthy / stat healthy, see you again, khayr/goodbye, etc.[4;2-p]

Speech etiquette is a universal language phenomenon that, Uzbek and English language have . At the same time , each language has its own vocabulary of words and phrases that reflect the national specificity of politeness of speech . English and uzbek language Greetings. Nice to meet you Nice to meet you Make an offer. Would you like ..? Do you want..? Apologize Excuse me, I am sorry

Can you do me a favor?

May I/Can you help me ?

The rules of speech etiquette are regulated by the rules of speech etiquette –a system of stable expressions developed in spoken language and used in situation of establishing and maintaining communication . This appeal : Dear Sir or Madam salomlar Good morning et cetera like to invite you tips : I would like to recommend you and other things . Speech etiquette includes everything that conveys a friendly attitude to the interlocutor , creates a comfortable environment for communication.

A rich collection of language tools allows you to choose what is suitable for the speech situation and convenient for the addressee, you or you form of

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

communication, setting a friendly, simple or, on the contrary, formal tone of conversation.

In general, by comparing some lexical semantic groups specific to speech etiquettes in Uzbek and English, their comparative study will be of great importance to reflect the rules of etiquette and culture in these language.

Thus, the above was the same developed speech culture. Edmund Spenser made a great contribution to the development of English speech culture. He is a prolific creator of English poetic poetry. Edmund Spenser, who went down in history as a poet who embodied the art of speech along with the culture of speech, was born in London in 1551/1552.

Wealth with livestock. Spenser, a relative of a noble family, born in a simple family, became a nobleman in the future with his oratorical art and creative work. In time, he studied art at the University of Cambridge. He reached the peak of this direction by studying the poetic art of the writers who created before him.

In the poetry of Edmund Spenser, the reader was distinguished by a special elegance, skillful of words. In turn, our hero created an opportunity for his poetic works to reach the heart of the reader with the art of oratory. An importance aspect of his work was that he was able to penetrate all layers of society with his poems.

It is no exaggeration to say that his poems have taken the English speech culture to another level. Being called the „Prince of Poets “ is a clear example of how high a place he holds in the art of English poetry, as well as in speech culture.

List of used literature:

1. Freud Z „Psychology massy and analiz chelovecheskogo,,Ya “SPb, Azbuka classic. 2008
2. Spiller, Michael R.G (2003). The Development of the Sonnet :an Introduction . Taylor and Francis. P. 142.ISBN 978-0-203-40150-7. OCLC 1027500333.
3. Bafoyeva N. ABDULLA QODIRIYNING “O ‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 25-30.
4. Jiyanqulovna J. L. TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 39-43.
5. Kilichev B., Bafoeva N. Some characteristics of onomastic units in abdullah qodiriy's novel" bygone days" //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 314-317.

**KIMYO O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARIGA OID
AYRIM MASALALAR XUSUSIDA**

N.V.Valiyev

Qo‘qon davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrasida dotsenti,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Bugungi kunga O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan pedagoglarni tayyorlovchi oliy ta‘lim muasasalari uchun yo‘naltirilayotgan dasturlar talabning har tomonlama faol bo‘lishi lozimligiga undaydi. Shuning uchun ham ular orasidan o‘z kasbida munosib natijalarga erishishga imkon beruvchi muayyan umumiy va xususiy kompetensiyalarni egallashga astiydil harakat qiluvchilarni ko‘plab ucharish mumkin. Buning natijasida talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti yuzaga kelayotganligini kuzatish mumkin. Raqobat atamasi ko‘p ma‘noli talqinlar va hatto tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki bu tushuncha ko‘p ma‘noli bo‘lib, ta‘lim oluvchilarning ongida shakllanishi uchun ma‘lum bir vaqtni talab etadi. Bu holat ta‘limdagi islohot natijasi sifatida ta‘lim oluvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va oshirishga xizmat qiladi. Umumiy ma‘noda, kompetentsiya, pedagogik faoliyat mezonlariga muvofiq funktsiyalar va vazifalarning kompleks to‘plamini muvaffaqiyatli ishlab chiqishga imkon beradigan munosabat, bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy kompetensiyalar har qanday darajada umumiy elementlarni belgilaydi, masalan, o‘rganish, qaror qabul qilish, loyihalash, shaxslararo munosabatlar va boshqalar. Ular, o‘z navbatida, har bir ta‘lim sohasiga xos bo‘lgan turli xil malakalar bilan to‘ldiriladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o‘ziga xos malaka va ko‘nikmalar har bir tematik soha bilan bog‘liq va har qanday daraja uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki ular tematik sohaning o‘ziga xos bilimlari bilan chambarchas bog‘langan.

Kasbiy kompetensiyalar – bu o‘z kasbini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni integratsiyalashuviga asoslangan holda, sub'ektning o‘z-o‘zini tartibga solishga imkon beradigan shaxsiy fazilatlaridir. O‘zaro ta‘sir va shaxsning qat‘iy o‘zini-o‘zi nazorat ostida faoliyatni amalga oshirish

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

pedagogning qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, ularga muayyan kontekstda jamiyatning ta‘limga bo‘lgan talablarini qondirish qobiliyatini shakllantirib beradi.

Kasbiy kompetensiyalar professional pedagog uchun eng xarakterli xususiyatlarini ko‘rsatadigan batafsil va puxta bir tavsif bo‘lishi kerak va mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lgan shaxsni tarbiyalashni uddalashi kerak. Bu esa professional pedagog kasbining bosh funktsiyalari va vazifalari hisoblanadi. Kimyo sohasida professional qiyofa kuchli nazariy, tajribaviy va tahlil ko‘nikmalari va qobiliyatlarda namoyon bo‘ladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, kimyogar axloqiy qadriyatlarga va ijtimoiy ongga o‘rgatilgan bo‘lishi kerak, chunki bu fan sog‘liqni saqlash, atrof-muhit, ekologik havfsizlik va sanoatga bog‘liq hisoblanadi. Bu esa jamiyatning mavjudligi va barqaror rivojlanishining bosh omillaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tendentsiyalarning eng yavshi jihatlarini tahlil qilishga asoslangan kasbiy ta‘lim, asosan, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va intizomiy xarakterdagi ehtiyojlar, talablar va kasbiy faoliyatning ma‘lum kognitiv asoslari bilan birlashtirilgan pragmatik malakani anglatadi. Ushbu istiqbolning zamirida muayyan muammolarni hal qilish orqali yuqori samaradorlikka yo‘naltirilgan kasbiy ta‘lim va texnik-texnologik yo‘riqnomalar yotadi. Barcha pedagogik tendentsiyalarda shuni kuzatish mumkinki, ta‘limning maqsadi talabani kelajakdagi ish joyiga tayyorlashdir va shuning uchun uni olishdagi qiyinchiliklar oliy ta‘limning vazifasi deb hisoblanadi. Bu vazifa asosan mutaxassis tayyorlovchi kafedra professor-o‘qituvchilari kompetensiyalariga bog‘liq bo‘ladi.

Kompetent ta‘lim orqali talabaga ushbu kompetensiyani shakllantirish imkonini beradigan bilim, malaka va ko‘nikmalar beriladi, bu esa oliy ta‘lim muassasalari va bitiruvchining ish joyidagi ta‘lim o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi. O‘qituvchining malakasini baholash o‘qitish sifatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu talaba nimani va qanday o‘rganish sifatining kalitidir.

Insoniy tuygʻular – yaxshi va yomon xulq-atvorlar, ularning koʻrinishlari, ijobiy va salbiy jihatlari haqida Sharq mutafakkirlarining koʻpdan koʻp oʻgʻitlari borki, ular hech bir davrda eskirmaydi. Masalan, eng qadimgi maʼrifiy qarashlar jamlangan “Avesto”

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

asari zardushtiylik¹ dinining muqaddas kitobi bo‘lib, unda axloq me‘yorlari hayot mezoni deb qaraladi va bashariyatga yaxshi ish, yaxshi xulq va yaxshi amal olamni ham, odamni ham bezaydi, deb tushuntiriladi. “Avesto”da inson fikri, so‘zi va ishi bilan go‘zaldir, degan g‘oya asosiy shior bo‘lib gavdalanadi. Zardusht nazariyasida “so‘z – yaxshi fikr va ezgu amal ifodasidir”. “Avesto” xuliq-atvorlar yoritib berilgan manba hamdir. Zardushtiylik ta’limoti bo‘yicha tinch mehnat, insonning yaratuvchanlik va bunyodkorligi ezgu xulq-atvor bo‘lib, barcha nopok kuchlarni quvadi, faqat mehnat, oliyanob amallar orqali nur va shodlik olamini ko‘paytirish, faqat mehnat tufayli haqiqat, tinchlik, davlatga erishish mumkin.

O‘rta asrlarda Sharqda o‘nlab buyuk donishmandlar yashab, ijod qildi. Ularning mehnati evaziga yuzlab kitoblar dunyo yuzini ko‘rdi. Shulardan biri – Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridir. Asar lug‘at deb atalsa-da, lekin unda o‘sha davrdagi va ungacha bo‘lgan ilmiy-adabiy parchalar, xalq ijodi, maqollar, hikmatli so‘zlardan ibratlar keltirilgan. Asarda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, bir so‘z bilan aytganda, xulq-atvorga oid fikrlar ham bor. Ular yoshlarga nasihat-o‘git tarzida berilgan. Shunday parchalarning biri: “Ilm-hikmat o‘rgan, o‘rganishda havoyilik qilma, hech narsa o‘rganmasdan o‘zini bilimdon ko‘rsatib maqtangan kishi – imtihon vaqtida uyaladi, achinadi”[3,253]. Adib yoshlarni bilim, hunar egallash uchun sa’y-harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Asarning yana bir o‘rnida kelajak avlodga qarata: “Ilmli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla, ilmlarini, hunarlarini o‘rganib, amalga oshir... O‘g‘lim, o‘git-kengashimni qulog‘ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo‘lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqlli odam nasihatni qabul qiladi” [3,255].

Ma’lumki, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodining asl mohiyati xulq-atvor, ta’lim-tarbiya bilan uzviy bog‘liqdir. Shoir asarlarining tub mohiyatida inson va uning baxt-saodati turadi. Bunda xulqning ahamiyati yuksak ekanligi ta’kidlanadi. Navoiy fikricha, odamzod dunyoda hamma narsadan yuksak, sharif, aziz va qadrlidir. Navoiy o‘z asrlarida inson haq-huquqlari, qadr-qimmatini uchun kurash olib boradi. Buning uchun Ollohning har bir bandasi, avvalo, sharafli inson nomiga sazovor bo‘lishga harakat qilishi lozimligini uqtiradi. Bu maqsadga erishishda ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutishini qayta-qayta ta’kidlaydi.

¹ Zardusht Sharq faylasuflaridan biri bo‘lib, er.av. VII asrda Xorazmda yashab o‘tgan. O‘z davri chorvador xalqlarning dini, urf-odatlarini, an’analarini o‘rgangan, din peshvolari suhbatida ishtirok etgan. Ko‘p xudolilikdan yakka xudolilik (Axuramazda) ni targ‘ib qilgan.

Buyuk mutafakkir “Mahbub-ul qulub” asarida odob haqida shunday deydi:

“Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrdan bahramand qiladi. Adab kichiklarning mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi,...yoshlarni ko‘zga ulug‘ ko‘rsatadi, ularning yurish-turishini xalq ulug‘vor biladi: odamlar tomonidan bo‘ladigan hurmatsizlik eshigini berkitadi, bog‘laydi va kishini hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi...”

Adabdan muhabbatga bezak va pardoz beradi, adab tarkidin do‘stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavoze do‘stlik ko‘zqusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug‘lik yetkazadi”[1,57].

Alisher Navoiy kishilarni muloyim, yoqimli, nafosatli, madaniyatli, xushmuomala bo‘lishga da‘vat etadi. Ayni vaqtda o‘zlari ham bunga amal qiladilar. “Mahbub-ul qulub” asarida Navoiy „...Yoqimlilik, xushmuomalalik inson gavdasining mevali bog‘idir. Odamgarchilik olamning toshlik javohirlik tog‘i, muloyimlikni hodisalar daryosida kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniylik mezonining toshiga nisbat bersa bo‘ladi“, deya so‘z qotadi.

Navoiy tamagirlikni qattiq qoralaydi, bu illatdan xoli kishilarni sharaflil odamlar deb biladi. Bu borada u o‘ziga xitob qiladi:

Ey Navoiy, olam ahlida tamasiz yo‘q kishi,
Har kishida bu sifat yo‘qdur, anga bo‘lg‘ay sharaf.

Umuman, Alisher Navoiy asarlari yoshlar xulq-atvori, odobiga bag‘ishlangan cheksiz bir ummon bo‘lib, aytganlarimiz mazkur ummondan kichik bir zarradir. Uning asarlari yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda, ularga mehnatsevarlik, halollik, to‘g‘rilik, poklik, ilm-ma‘rifat, ma‘nafiyat, do‘stlik va oliyanoblikni o‘rgatishda benazir maslahatlar bera oladigan eng yaqin do‘st sanaladi.

Bir so‘z bilan ayganda, ulug‘ donishmandlarimizning ta‘lim-tarbiya haqidagi e‘tiroflari, shuningdek, ularning hayot yo‘li yoshlar xulq-atvori uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Sharq xalqlarining, xususan, o‘zbek pedagogikasining uzviy tarkibiy qismi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Asadov T. Sharq donishmandlari ta‘lim-tarbiya haqida. –Buxoro, ”Durdon”, 2020.
- 2.Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.:“Ўқитувчи”, 1974.
- 3.Махмуд К. Девон-у луғотит турк. 1-китоб. –Т., 1960.
- 4.Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. –Т.:“Ўқитувчи”, 1997.

Ў

з

б

е

к

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sarifpov Jaxongir Galiyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha boshlang'ich yunalishi stajyor o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati va zaruriyati, mazmuni va mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan.

Annotatsiya: В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование речевой культуры у студентов, а также отражается значение и необходимость, содержание и сущность, а также конкретные характеристики факторов, влияющих на формирование речевой культуры у студентов.

Annotatsiya: This article examines the factors influencing the formation of speech culture among students, and also reflects the meaning and necessity, content and essence, as well as specific characteristics of the factors influencing the formation of speech culture among students.

Tayanch so'zlar: Ta'lim, tarbiya, talaba-yoshlar, nutq, qobiliyat, ijodkorlik, muloqot, kognitivlik, kommunikativlik, xotira, diqqat, dunyoqarash, salomatlik, sog'lom turmush tarsi, ma'naviy-ahloqiy barkamollik, shaxs, yetuk mutaxassis, ma'rifat madaniyat.

Ключевые слова: Образование, обучение, студенты, молодежь, речь, способности, творчество, общение, познавательные, коммуникативные, память, внимание, мировоззрение, здоровье, здоровый образ жизни, духовно-нравственная целостность, личность, зрелый специалист, просвещенная культура.

Key words: Education, training, students, youth, speech, ability, creativity, communication, cognitive, communicative, memory, attention, outlook, health, healthy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

lifestyle, spiritual and moral integrity, personality, mature specialist, enlightened culture

O‘sib kenlayotgan bola shaxsining madaniyati uning axloqi, odobi, xulqi, insoniylik sifat va fazilatlari bilan belgilanadi. Bolada shakllanadigan nutq madaniyati madaniy, aqliy, xuquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi va tarkib topadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida bola shaxsining madaniyatlilik darajasi va ko‘rsatkichlari hamda ulardagi shaxsiy sifat va fazilatlarni kamol topishiga, kelajakda yetuk inson sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga imkon beradi. Demak, bola shaxsida madaniyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. U egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar ta’sirida ro‘yobga chiqadi. Madaniyat - jamiyatning muayyan a’zosi ya’ni bola shaxsining turli faoliyati (o‘quv, o‘yin, mehnat) jarayonida to‘plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi sanaladi.

Ijodkor pedagog bola shaxsining nutq madaniyatini shakllantirishda orttirilgan boy tajribalar bilan bir qatorda xorij tajribalaridan ham kengroq foydalanishga e’tibor qaratishi maqsadga muvoffiq sanaladi. Bunda tarbiyachi - pedagogning tashabbuskorligi, krieativligi, kamunikativligi, kognitivligi va reflektiv yondashishi natijasida bola shaxsi ajdodlar tarixi va madaniyati, adabiyoti, san’ati, an’analari va urf-odatlar haqida chuqur bilim egallaydi. Madaniyatlararo kompetensiyalarni o‘rganish orqali talabalarning davlatlararo madaniy merosiga bo‘lgan qiziqishi va salohiyati oshadi. Til - aloqa vositasi bo‘lsa, nutq - aloqa shaklidir. Inson hayotida har ikkisining ham o‘rni beqiyosdir. Nutq shaxslararo muloqotni ta’minlovchi vositadir. Inson dunyoga kelibdiki, atrof-muhitda u bilan birga bo‘lgan insonlar bilan muloqot jarayonida bo‘ladi. Aslini olganda bu muloqotning poydevori ona qornida shakllanadi. Bola ona qornida 3 oylik bo‘lganida uning yuragi ura boshlaydi. Aynan shu davrda bola onaning psixologik holatini his qiladi hamda tovushlarni eshitadi. Bu davrda onaning bolasi bilan muloqot qilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shaxs tarbiyasining negizi ham onaning homiladorlik davriga borib taqaladi. Bu holat olimlar tomonidan ham o‘z isbotini topgan. Shu mavzudagi - 193 - turli rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Rivoyat qilishlaricha , bir donishmandning oldiga 6 oylik bolani tarbiyalab bering, deb olib borishadi. Shunda donishmand so‘raydi, “Bolangiz necha oylik bo‘ldi?” desa. “ Bolamiz 6 oylik bo‘ldi “ deb javob qaytarishadi. “ Bola tarbiyasiga 6 oy kechikibsizlar” deb javob beradi, donishmand. Shunday ekan, biz tarbiyani ona qornidan boshlashimiz zarur bo‘lgani kabi, muloqotni ham shu davrdan boshlashimiz lozim. Bu muloqot jarayoni u dunyoga kelgach, alla orqali bevosita olib boriladi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Bola tug‘ilgandan so‘ng, ona o‘z mehrini alla ohanglariga tushirib, bolasini allalaydi, ovutadi, butun dil isxorlarini eshilib sochilib kuylaydi. Bola alla orqali birinchi navbatda onasini muhabbatini, mehrini sezadi, tovushlar va kuy bilan tanishadi, orom olib yotadi. Ammo bugungi kunda dilni xira qiladigan bir holat borki, aksariyat yosh onalar bolalariga alla aytishmaydi, yoxud alla aytishni bilishmaydi, go‘yoki eskicha qarash qabig‘ida ish tutadi. Oqibatda buning salbiy ta‘siri yillar o‘tgach, namoyon bo‘ladi. Alla bolada nutqning tezroq vujudga kelishiga yordam beradi. Masalan, alla ko‘p eshitgan bolalar, beshikda yotgan paytida onasi aytgan alla tembriga mos ravishda tovushlarni chiqarib o‘zlariga-o‘zlari alla aytadilar. Bu o‘z-o‘zidan bolada tovushga taqlidchilikni vujudga keltirib, muloqotga kirishishiga imkon yaratadi. Psixolog olimlarning fikricha, bolani besh-oylikdan boshlab nutqni tushunishga o‘rgata boshlash kerak. Buning uchun bolaga, biror predmetni nomini bir necha marta aytib, takror takror eslatib ko‘rsatish kerak. Bu holat bir necha marotaba takrorlangach, keyingi safar shu predmetni ko‘zi bilan qidira boshlaydi. Bu narsa bolaning kattalar nutqiga tushuna boshlashini bildiradi. Bola nutqini shakllantirishda nafaqat muloqot qilish balki, ularda sensor motorikani shakllantirish ham, samarali natija beradi. Bolada yirik va mayda motorikalarni rivojlantirish, miya faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, nutqining rivojlanishiga, tafakkur, idrok, xotiraning shakllanishiga motivatsiya beradi. Bola nutqining noto‘g‘ri shakllanishi va buzilishining yana bir sababi, ikki tilda so‘zlashuv muhitidir. Ayrim ota-onalar farzandini ikki tilni baravar o‘rganishini xohlaydilar va o‘z ona tilida ravon so‘zlay olmagan bolalariga boshqa xorijiy tillarni o‘rgatishga harakat qilishadi. Natijada o‘z ona tilining grammatik qurilishini yaxshi bilmagan bola, o‘zga tilni ham mukammal o‘zlashtira olmaydi, bola nutqida ikki til qorishmasi yuzaga keladi. Na, u tilda na bu tilda aniq va ravon gapira olmaydi. Yoki ota-onalar va pedagog tarbiyachilar bola nutqini rivojlantirishda aniq rejali yondashishi kerak bo‘ladi.

Jadidchi olimlarda Mahmudxo‘ja Behbudiyning shunday so‘zlari bor: “ Avval biz musulmon bo‘laylik, o‘z o‘zbek tilimizni bilaylik, ana undan keyin ikkita emas, to‘rtta tilni o‘rganaylik.” Bu til o‘rganishga nisbatan sharqona qarashning namunasi bo‘lsa, g‘arbda ham til o‘rganishga nisbatan bir qancha fikrlar mavjud.

Y.I. Tixeyeva o‘zining ilmiy qarashlarida, bolalarni o‘qitishda dastlab o‘z ona tilisini o‘rgatish, uni mukammal o‘zlashtirishini maqsadga muvoffiq deb hisoblaydi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda, Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda oila hamkorligi nihoyatda muhimdir. Bunda tarbiyachi-pedagog bolalarning ota-onasi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

bilan muloqotda bo‘lishi kerak. Pedagog bolaning psixologik va fizologik holatini hisobga olib, ta‘lim-tarbiya jarayonini olib borishi lozim. O‘z-o‘zidan buni qanday amalga oshirish mumkin degan savol tug‘iladi. Avvalambor, tarbiyachi bola bilan - 194 - do‘stona munosabatda bo‘lishi, uning ehtiyoji nimada ekanligini bilishi kerak. Bolani psixologiyasi va fizologiyasini o‘rgangach, muammoning yechimini ham shunga qarab izlaydi. Keyingi bosqichda, metodlardan foydalangan holda, bolaning nutqidagi nuqsonini yo‘qotishga kirishadi, uni so‘zlashga o‘rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin bo‘lganligi sababli, o‘yin davomida bolani to‘g‘ri talaffuzga tiniq gapirishga, gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri qurishga o‘rgatiladi. Bolalar nutqining buzilishiga sabab bo‘ladigan yana bir omil bu- badiiy til va sheva o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Pedagogga qo‘yilgan talablarga ko‘ra, pedagog o‘z nutqida, jargonlardan, shevadan foydalanishi qat‘iyan man etiladi. Shu sababli tarbiyachi adabiy tilda gapirishi maqsadga muvofiqdir. Biroq shu yerda yana bir ziddiyat kelib chiqadi. Bola pedagogning nutqi orqali badiiy tilda so‘zlashishni o‘rgandi, vaholanki oilada shevada muloqot qilish kuzatiladi. Bu bolada ikkilanishni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda pedagogning ham shevada so‘zlashishi muammoga yechim bo‘la olmaydi. Keyinchalik maktabga chiqqandan so‘ng ham qiynaladi. Chunki, bola o‘qiyotgan adabiyotlar badiiy tilda yozilgan bo‘ladi. Bu holat yuz bermasligi uchun, bola bilan imkon qadar badiiy tilda gaplashish ko‘cha so‘zlardan foydalanmaslik muhim hisoblanadi. Bunda mas‘uliyat ham ota- onaning ham tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Bolalarni badiiy tilga o‘rgatishda ertaklar, she‘rlar qo‘shiqlardan foydalaniladi. Bu bolalarda badiiy til savodxonligini to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi. Ba‘zan ko‘z ilg‘amas, arziyas bo‘lib ko‘ringan xatoliklar katta muammolarning ildiz otishiga imkoniyat yaratadi. Nutq deganda biz faqatgina ravon so‘zlashni emas, balki chiroyli, emotsiyalar bilan so‘zlashni inobatga olishimiz kerak. Shu bilan birgalikda, odob doirasida, madaniyatli muloqot qilishni ham o‘rganishimiz va o‘rgatishimiz lozim. Farzand tarbiyasi haqida so‘z borganda, biz onani va pedagogni ma‘sul qilib ko‘rsatamiz, biroq bu borada otaning o‘rni ham beqiyosdir. Masalan, uzoqqa bormay, hayotiy misollardan oladigan bo‘lsak, ayrim otalar o‘g‘il farzandlariga so‘kinish so‘zlarini o‘rgatishadi va bola buni o‘rganib takrorlaganda kerilib xursand ham bo‘lib qo‘yishadi. Lekin bu birinchidan, bola nutqida aytadigan doimiy so‘zga aylanadi va o‘z tengqurlari hamda o‘zidan kattalarga ham qaytaradi. Ikkinchidan, so‘kinish bilan muloqot qilish bola tarbiyasiga juda salbiy ta‘sir ko‘rsatib, keyinchalik bolada axloqiy me‘yorlarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Buning oldini olmaslik,

qadriyatlarining toptalishiga hamda axloqsizlikning tup qo'yib, palak yozishiga imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bospalko, V.P. O vozmojnostyax sistemnogo podxoda v pedagogike / V. P. Bospalko // Sovetskaya pedagogika, 1990. - № 7. - S. 59 – 62.
2. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 14. // Xalq so'zi. 2016 yil 15 dekabr. – № 247. – 2 b.
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.



**Research Science and
Innovation House**

PSIXOLOGIYA METODLARI VA TARMOQLARI

Sharabidinova Nigora

Termiz davlat universiteti

Annonatsiya: ushbu maqolada psixologiya tarmoqlari haqida tushuncha berilgan. Shuningdek, psixologiya metodlari, kuzatish va tinglash, zamonaviy metodlar haqida keng yoritilgan.

Kalit soʻzlar: psixologiya tarmoqlari, metodlari, diagnostika, psixik jarayon, pedagogik psixologiya.

KIRISH.

Hozirgi kunda psixologiya fani sir-asrorlarini har bir oʻquvchi uchun zarur boʻlgan jihatlarini, chunonchi: psixologiyaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi, hamkorligi, bogʻliqligini; psixologiyaning zamonaviy yoʻnalishlari va tarmoqlarini; shaxsni psixologik diagnostika qilish usullarini; shaxs va jamiyat munosabatlarini uygʻunligini; shaxs faoliyati va hatti-harakati motivlarini; faoliyati turlarini; shaxsda kuzatiladigan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayolni bilish va ularni boshqarish qonuniyatlarini qoʻllay olishni; shaxsdagi qobiliyat, xarakter va temperament kabi individual psixologik xususiyatlarning shaxs faoliyati va hayotidagi tutgan oʻrnini; shaxsning turli yosh davrlarga bogʻliq xususiyatlarini; shaxsning muloqot jarayonidagi shakl, tur, vositalarini; shaxsning guruhga va oʻz navbatida guruhning shaxsga taʼsirini; oʻquv va tarbiya jarayonida qoʻllash mumkin boʻlgan samarali usullarni bilish, oʻrganish muhimdir.

ASOSIY QISM.

“Psixologiya” soʻzi ikkita grek soʻzlaridan – “psyche” – jon, ruh va “logos” – taʼlimot, ilm soʻzlaridan iborat boʻlib, anʼanaviy maʼnoda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va oʻz-oʻzimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya boʻyicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

qilib, psixikadir, deb ta’rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) 4

ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Lekin bu qisqa ta’riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto’g’ri bo’ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba’zan o’z-o’zimizni ham tushunmay qolamiz.

Psixologiyaning fan sifatida dunyoga kelishi va rivojlanishi tarixi qator olimlarning ilmiy izlanishlarida bayon etilgan. Frantsiyalik olim J. Godfruaning “CHto takoe psixologiya” nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo’lgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19-asrlarda Kondilyak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan.

Psixologiyaning 300dan ortik tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

umumiy psixologiya – psixologiyaning barcha masalalarining o’ziga xos jihatlarini o’rganadigan maxsus sohasi;

pedagogik psixologiya – kishiga ta’lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o’rganishni o’z predmeti deb biladi;

yosh davrlari psixologiyasi – turli yoshdagi odamlarning tug’ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o’zaro munosabatlari qonuniyatlarini o’rganadi;

ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo’ladigan tasavvurlar, fikrlar, e’tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o’rganadi;

mehnat psixologiyasi – kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o’rganadi;

injenerlik psixologiyasi – avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o’rtasida funktsiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o’rganadi;

yuridik psixologiya – huquq sistemasining amal qilishi bilan bog’liq masalalarning psixologik asoslarini o’rganadi;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

harbiy psixologiya – kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo‘ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o‘rganadi;

savdo psixologiyasi – jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko‘radi;

tibbiyot psixologiyasi – shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Introspektoriya — bu o‘z aqliy jarayonlarini kuzatish, hech qanday vositalarni ishlatmasdan o‘z ruhiy hayotini bilish.

Kuzatish — jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini jarayonning o‘zida faol ishtirokisiz o‘rganish.

Eksperiment — bu ma’lum bir jarayonni tajribalar orqali o‘rganish. Tajriba maxsus belgilangan sharoitlarda faoliyatni simulyatsiya qilish asosida qurilishi yoki odatdagi faoliyatga yaqin sharoitlarda o‘tkazilishi mumkin.

Rivojlanish tadqiqotlari — bir necha yillar davomida kuzatilgan bir xil bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish.

Psixologiya metodlari — kelib chiqishi

Zamonaviy psixologiyaning kelib chiqishida Aristotel, Ibn Sino, Rudolf Goklenius birinchi bo‘lib «psixologiya» tushunchasini ishlatgan. Zigmund Freydni esa hatto psixologiyaga aloqasi bo‘lmagan odam ham eshitgan. Fan sifatida psixologiya 19-asrning ikkinchi yarmida falsafa va fiziologiyadan ajralib chiqqan holda paydo bo‘ldi. Psixologiya psixikaning mexanizmlarini, ongsiz ravishda va shaxs tomonidan amalga oshirilishini o‘rganadi.

XULOSA.

Psixologiya nima uchun kerak

Inson o‘zini bilish va yaqinlarini yaxshiroq tushunish uchun psixologiyaga murojaat qiladi. Ushbu bilim ularning harakatlarining haqiqiy motivlarini ko‘rish va anglashga yordam beradi. Psixologiya ruh haqidagi fan deb ham ataladi, inson hayotning ma’lum bir lahzalarida o‘ziga savollar berishni boshlaydi — «men kimman?», «Men qayerdaman?», «Nega men bu yerdaman?» Nima uchun odamga bu bilim va ong kerak? Psixologiya hayot yo‘lida qolib ketmaslik, bir ariqqa keyinchalik qayta tushmaslik va yiqilgandan so‘ng ko‘tarilishga kuch topish va davom etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov M., Maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T., 1970;
2. Davletshin M., Krbiliyat va uning diagnostikasi, T., 1979;
3. Tokareva V., Talaba shaxsining axloqiy rivojlanish psixologiyasi, T., 1989;
4. G‘oziyev E., Psixologiya fani XXI ayerdagi, T., 2002;
5. G‘oziyev E., Psixologiya, T., 2003;
6. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989;
7. Shoumarov G‘., Oila psixologiyasi, T., 2000;
8. Karimova V., Ijtimoiy psixologiya, T., 1994.
9. Ergash G‘oziyev.[1]



Research Science and
Innovation House

**BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI AQLIY
TARBIYALASHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI**

Safarov Botir Norboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

botirsafarov8989@gmail.com

Tel: +99897 916-89-89

Nabiyeva Gulnora

Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo‘lim talabasi

nabiyevagulnora@gmail.com

Tel: +99899 629-58-84

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktablarda boshlang‘ich sinflardagi bolalarga aqliy tarbiya berishda didaktik o‘yinlardan foydalanish ahamiyati haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: didaktika, maktabgacha ta‘lim tashkiloti, boshlang‘ich sinflar, o‘yin, kommunikativ, bola, ijtimoiylashuv, pedagog.

**THE SIGNIFICANCE OF DIDACTIC GAMES IN THE MENTAL
EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS**

ABSTRACT: This article provides information about the importance of using didactic games in mental training of children in primary grades in schools.

Key words: didactics, preschool education organization, primary classes, game, communicative, child, socialization, pedagogue.

Boshlang‘ich sinfdagi bolalar didaktik o‘yinlari hissiyotlarni rivojlantirishi atrofimizdagi dunyoni to‘liq anglash uchun bola uni his qilishi va idrok qilishi kerak. Didaktik o‘yinlarni ta‘lim tarbiyaviy faoliyat jarayonlarida qo‘llash bolalar nutqini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bunday o‘yinlar bola so‘z boyligini boyitadi, ham faol, ham passiv, tovushlarni va butun so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni, jummalarni tuzishni, o‘z fikrlarini aniq ifoda etishni o‘rganadi. Boshlang‘ich sinfdagi bolalar uchun didaktik o‘yinlar mehnat ta‘limi funksiyasini bajaradi. Darhaqiqat, bolalar o‘yin uchun materiallarni mustaqil ravishda tayyorlash orqali boshlang‘ich mehnat ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Besh yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalar rasmlarni, o‘yinlar uchun

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

tabiiy materiallarni olishadi, kartalar, chiplar, o'yinlar uchun qadoqlar tayyorlashadi. Agar bola o'yin uchun atributlarni o'zi tayyorlasa, ularga nisbatan munosabat yanada ehtiyotkor bo'ladi. Didaktik material gigienik bo'lishi kerak va iloji bo'lsa estetik tarzda ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Darhaqiqat, yorqin, oqlangan o'yinchoqlar har doim bolalarning e'tiborini jalb qiladi, ular bilan o'ynash istagini uyg'otadi, bu ular estetik tarbiya funksiyasini bajarishini anglatadi. To'g'ri didaktik o'yin yosh avlodning axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Bolalar kattalar mehnati natijasida o'yinchoqlarga, atrofdagi narsalarga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari, tengdoshlar va kattalar bilan bo'lgan munosabatlar, turli xil shaxsiy xususiyatlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar. O'yinning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak o'yin muammosi dastlab “Avesto”da so'ngra Mahmud Qashg'ariyni “Lug'ati turk” asarida juda keng asoslab berilgan. Bolalarni ovunchog'i o'yinchoqlardir, ayniqsa Boshlang'ich sinfdagi bolalarni ma'naviy, axloqiy rivojida katta ahamiyat kasb etadi. O'yin–ma'naviy his–hayajonlar va tasavvurlarni, xulq xatti–harakat va axloq madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasidir. O'yin ma'naviy his–hayajonlar va tasavvurlarni, xulqiy xatti–harakat va axloq madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasidir. Bola kattalarning hayotini o'ziga ko'chirma qilib olar ekan, ularning tashvishlari yetadi, ijtimoiy axloq normalarini o'zlashtirib oladi. Ilk qadam o'quv dasturida berilgan o'yin kompetensiyasida bolalarning ijodiy o'yinlar o'ylab topishi, vaziyatni to'g'ri baholash va ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqea hodisalarga munosabatini angalaganligini kuzatishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinfdagi bolalar rang–barang harakatli, didaktik, milliy o'yinlarni o'ynaydilar. Ular didaktik o'yinlarni afzal ko'radilar, chunki ularda bizni o'rab turgan kundalik turmushdagi barcha narsalarni kishilarning hayot tarzi, mehnat faoliyatini, ularni o'zaro munosabatlarini hamda hozirgi zamon voqealari tasvirlanadi. O'yinda bolalar o'zlarining kattalar hayoti ishtirokchilari bo'lishga bo'lgan qiziqishlarini, qizg'in intilishlarini qoldiradilar. Huddi onasidek qizchalarini (qo'ng'irchoqlarini) tarbiyalaydilar, vrachdek ularni davolaydilar, o'qituvchidek ularni o'qitardilar va hakoza. Tanlangan roli bolani butunlay chulg'ab oladi, ularning aqli va hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ona mehribon va g'amxo'r, vrach e'tiborli va ziyrak, kamandir adolatli va talabchan, sotuvchi xushmuomala va ochiq ko'ngil, dengizchi qo'rqmas va jasur. Agar bola bu rollarni qaysi birini tanlasa, u o'shaning mag'zini chaqib va obrazga kirib uni chuqur his qiladi. Boshlang'ich sinfdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabning ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati haqida batafsil yoritilgan.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Davlat dasturlarida bolaning o‘yin o‘ynash huquqi tan olinadi, o‘yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi. O‘yin maktabgacha va maktab yoshda yetakchi faoliyatdir. O‘yin orqali ta’lim olish bolalarni ta’lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. Bolalar o‘yinini tashkil etishda pedagogning o‘rni quyidagilar :

- bolalar o‘yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar).
- bolalar o‘yinini rivojlantirish.
- bolalarning o‘yinda o‘zaro munosabatda bo‘lishiga yordam berish
- bolalarga o‘zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish.

Milliy didaktik o‘yin bu xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak–atrofdan olgan taassurotlari, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan bilimlari bu o‘yin orqali qayta ishlanadi, to‘ldiriladi. Bolalarning bunday o‘yinlari tevarak–atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. O‘yinning syujeti o‘z harakati, munosabatlari bilan bog‘langan voqeya, hodisalar va ularning qatnashuvchilaridir. Rol–milliy o‘yinning asosiy negizi hisoblanadi.

O‘yin jarayonida juda ko‘p g‘aplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to‘g‘ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va hayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Milliy o‘yinlarni mazmunini rang barangligi ularni tasvirlash va tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Hozirgi paytda ko‘pchilik pedagog va psixologlar o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uch guruhga bo‘ladilar:

1. Maishiy o‘yinlar
2. Mehnat mavzusidagi o‘yinlar
3. Ijtimoiy mavzusidagi o‘yinlar

O‘yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi. Bola o‘ynayotganda har- xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxtacha ustidan o‘tadi, engashadi, yuqoriga tirlashib chiqadi. Bu harakatlarning hammasini bola be‘malol, o‘z hohishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo‘lib qoladi, jismoniy jihatdan chiniqib boradi. Milliy didaktik o‘yinlar bolaning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilishga qiziqishini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. O‘yinda bola o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, hamda topaganlikka o‘rgatadi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Xulosa qilib aytganda didaktik o‘yinlar Boshlang‘ich sinfdagi bolalarning ta‘lim-tarbiya olishida o‘zaro rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yin faoliyati orqali shaxsning o‘qishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi ortadi. O‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya‘ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi. Bola shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi. Hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi. Didaktik o‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi. Bola shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

D

1. Amonashvili Sh.A. Salom, bolalar! -M., 1988 yil
2. Bondarenko A.K. Bolalar bog‘chasidagi didaktik o‘yinlar., M., Ta'lim, 1991 yil.
3. Venger L.A. "Bolaning hissiy madaniyatini tarbiyalash", M., Ta'lim, 1988 yil.
4. Goletskaya O. "Bolalar bog‘chasidagi o‘yinlar", M., 1966 yil
5. Jukovskaya R.I. "O‘yin va uning pedagogik ahamiyati." (M., 1100).
6. Krupskaya N.K. Maktabgacha ta'lim haqida.-M., 1100.
7. Kozlova S.A. Maktabgacha pedagogika.-M., 2000 yil.
8. Maksakov A.I. O‘ynab o‘rganing - M. - 1981.
9. Menjheritskaya D.V. O‘qituvchiga bolalar o‘yini haqida - M., 1982 yil.
10. Sorokina A.I. Bolalar bog‘chasida didaktik o‘yinlar - M., 1982 yil.
11. Birlashtiruvchi A. "O‘ynaymiz", M., Ma'rifat, 1991 yil.
12. Smolentseva A.A. "Matematik tarkibga ega bo‘lgan fan-didaktik o‘yinlar", Moskva, ma'rifat, 1987 yil.
13. Shvaiko G.S. "Nutqni rivojlantirish uchun o‘yinlar va o‘yin mashqlari", M., ma'rifat, 1988 yil.
14. Erma Doom "Rang, shakl, miqdor" M., ma'rifat, 1984 yil.

5

o‘rgatish ulubiyoti. Tosh. O‘z.MKB. 2011 y - 52 b. 1 – qism.

PIRLS-XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH BO‘YICHA

5

5

5

5

5

5

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

21- ASRDA INNOVATSION TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATIGA BASHLANGAN XALQARO KONFERENSIYADA (1-jild, 8-son, 30-35-betlar).

19.Safarov, B. (2021). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini ahamiyati: 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini ahamiyati. Maktabgacha ta'lim jurnali , 2 (2).

20.Norboyevich, SB, & Axmadjonovna, BM (2023). TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING BOSHQARUV PRINSPLARI. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 2 (4), 18-23.

1.www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

3.www.nadlib.uz - (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)

4.<http://ziyonet.uz> - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal
- Toshkent davlat pedagogika universiteti rasmiy sahifasi

**Research Science and
Innovation House**

Особенности мыслительной деятельности школьников в
подростковом возрасте

Исмаилова Асилпашша Рожабовна

УРДУ. Педагогика и психология

преподаватель кафедры

+99890-906-30-41

Аннотация: В данной статье описаны конкретные стороны мыслительной деятельности учащихся-подростков, в частности, приведены сведения о систематическом изучении основ науки, самостоятельном мышлении, рассуждениях, сравнениях, выводах и обобщениях.

Ключевые слова: Подросток, образование, учебный процесс, мышление, абстрактное мышление, анализ, синтез, конкретное мышление.

В подростковом возрасте происходят существенные изменения в развитии мыслительной деятельности учащихся, преимущественно в учебном процессе. Уровень достижения развития мышления младшего школьника позволяет начать систематическое изучение основ науки уже в подростковом возрасте. Содержание и логика изучаемых в V-VI классах предметов, характер получения знаний, самостоятельное мышление, рассуждение, сравнение, вывод и обобщение требуют опоры. В процессе обучения развивается абстрактное мышление, анализ и синтез изучаемых явлений. Например, математика дает большие возможности для развития мышления подростка.

Переход от арифметики к алгебре обычно означает переход на более высокий уровень обобщения. Если в предмете арифметики имеется абстракция чисел, то для алгебры характерна передача знаков и действий чисел, т. е. обобщение, позволяющее выразить связь между величинами в абстрактной и обобщенной форме. Поэтому изучение алгебры дает новый толчок развитию мышления.

Большое значение имеет также геометрия, где происходит абстрагирование от конкретных предметов и освоение форм, отношений геометрических тел в абстрактной форме. Геометрия учит человека мыслить строго логически,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

развивает умение обосновывать и доказывать, рассуждать, отличать проблемное от возможного.

Все учебные предметы, изучаемые подростком, в первую очередь стимулируют развитие его абстрактного мышления. Конечно, не должно быть упрощенного толкования возрастных изменений мышления, согласно которому юный школьник мыслит конкретно, а в подростковом возрасте переходит к абстрактному мышлению.

С переходом к подростковому возрасту существенно изменяются и обогащаются также абстрактно-обобщающие, образные компоненты психической деятельности (в частности, развивается способность конкретизировать, описывать, раскрывать содержание понятий в конкретных образах и представлениях).

Но общее представление о развитии мышления возникает с точки зрения постепенного перехода от преобладания наглядно-образного мышления (у младших школьников) к преобладанию абстрактного мышления в понятиях (в подростковом возрасте). Постепенно под влиянием школы развивается аналитическая и синтетическая деятельность, у подростков формируется склонность не только к конкретным фактам, но и к объяснению причины и следствия их анализа, учащиеся умеют выделять в материале главное, важное, обрести умение обосновывать, доказывать определенную позицию, делать широкие обобщения.

В ходе учебного процесса формируются абстрактные понятия - математические (точка, линия, угол, равенство), физические (сила, удельный вес, скорость), географические (экватор, полюс, широта, долгота), исторические (рабовладелец, раб, боярин). процесс. Конечно, в подростковом возрасте есть и возрастные различия: одно дело – мышление 11–12-летнего школьника, другое – мышление 15-летнего школьника.

Овладение абстрактным мышлением не происходит без труда. Учащиеся VI, а зачастую и VII класса испытывают в этом плане определенные трудности, что отмечается в ряде исследований психологов. Таким образом, семиклассники, зная важные признаки предмета, не всегда могут идентифицировать их в необычной, изменившейся ситуации. Проиллюстрируем это на примере геометрии. При повороте деревянного прямоугольного треугольника многие ученики называют его прямоугольным треугольником (когда прямой угол

находится «внизу», у основания), то есть остроугольным (когда прямой угол находится «вверху»).

Несмотря на то, что они знают важное свойство, которое ясно и правильно указывает на соответствующее определение, большинство из них не могут определить его в необычной ситуации (когда гипотенуза является основанием треугольника). Отмечается еще одна особенность: у учащихся седьмого класса часто возникают трудности в освоении геометрических фигур, это связано с тем, что способность абстрагироваться и понимать из конкретных фигур, изображенных на картинке, еще не развита, проверенное положение не только связано с этой картинкой, но имеет общий смысл.

Кроме того, учащимся VII класса приходится преодолевать серьезные трудности, связанные с необходимостью сохранять последовательность мышления и обосновывать каждое положение в геометрических рассуждениях; типичными ошибками в этом случае являются ошибки, подмены, повторение отдельных звеньев доказательства, введение ненужных смысловых связей, отсутствие аргументации. Также у многих подростков сравнительно низкий уровень развития аналитико-синтетической деятельности и недостаточное знание образа мышления. Это особенно проявляется в том, что решение геометрических задач на доказательство представляет значительные трудности для многих подростков, особенно когда рисунок не «рассказывает» ни процесс доказательства, ни метод решения.

Ряд психологических исследований отметил отсутствие навыков абстракции, характерных для многих молодых людей, изучающих грамматику. Они не всегда умеют абстрагироваться от значения слов и обращать внимание только на их грамматическую форму: слова «бежать», «ходить», «плавать», «сидеть» часто называются ими глаголами, словами. «толстяк» — к прилагательным.

Некоторые подростки испытывают трудности с установлением причинно-следственных связей, и раньше и лучше им приходится находить причины событий или явлений, чем определять последствия, то есть постепенное (или прямое) рассмотрение причинно-следственных связей (от причины к эффект) обычно регрессивен (или обратный – эффект вызывает больше затруднений, чем Например, выполняя задание на определение того, что такое климат конкретного региона и какие условия от него зависят, учащиеся одновременно задаются

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

вопросом: «Какой климат должен соответствовать этим условиям?» они сталкиваются с трудностями при ответе на такие вопросы. Все приведенные материалы показывают, что абстрактное мышление находится в стадии формирования у подростка, его бурное развитие связано с преодолением определенных трудностей.

Другой важной особенностью мыслительной деятельности подростка является большая роль конкретно-образного компонента мышления. С развитием абстрактного мышления конкретно-образные (наглядные) компоненты мышления подростков не исчезают, а сохраняются и развиваются, продолжают играть важную роль в общей структуре мышления (особенно у V-VI классов). Роль наглядного материала в процессе усвоения остается очень важной, наиболее быстрое и точное усвоение понятий происходит, если оно основано на правильно методически подобранных зрительных образах.

Подростки легче усваивают такие признаки понятий, которые можно выразить наглядно. Например, в понятии «раб» легко понять такой символ, как принудительный труд рабов, в понятии «рабовладелец» — символ богатства и т. д. Если понятия по своей природе не могут быть в достаточной степени основаны на зрительных образах (например, понятия об общественных формациях - «рабовладельческий строй», «феодализм» и т. д.), то подростки испытывают значительные трудности в их овладении. То же самое отмечается и в отношении других понятий – геометрических, физических, географических, биологических.

Влияние прямых эмоциональных впечатлений на мышление подростка настолько велико, что в ряде случаев оказывается сильнее влияния слов (объяснения учителя, текста учебника). Если изобразительный материал используется неправильно (однородность, односторонность или ограниченность зрительного опыта), это может иметь и отрицательный эффект – может помешать выявлению важных особенностей предмета или события и сосредоточить внимание учащихся на четко определенных но случайные вещи.

Это часто приводит к распространенной ошибке – незаконному сужению или расширению определенного понятия, когда в понятие включаются явно напечатанные случайные, маловажные признаки, которые тем самым возводятся в ранг важных.

Многие исследования показали, что учащиеся часто не понимают этого «введения», поскольку одновременно правильно определяют понятия и

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

правильно перечисляют важные признаки; применяя эти понятия, он фактически опирается на другие, ясно осознаваемые существенные свойства. По этой теме имеется богатый и интересный материал. Например, при изучении ботаники в V-VI классах учащиеся считают корнями все части растения, находящиеся в почве (в том числе мицелий, корни, корневища), к корням они не относят воздушные корни, т.е. им трудно понять, что нахождение в земле не является существенной чертой понятия «корень», даже если его словесное определение верно. При изучении географии студенты V-VI относят к понятию «водный бассейн» только небольшие холмы, они не рассматривают Кавказ, Альпы, Карпаты и Урал как водные бассейны.

Много подобных случаев наблюдалось при изучении геометрии семиклассниками. Например, учащиеся часто думают, что прямая линия бывает только горизонтальной; вертикальные и косые линии не считаются правильными («это не прямая, а перпендикуляр!»), считают, что в окружности можно провести только один или два диаметра (вертикально и горизонтально), только непроходящие внешние углы классифицируются как внешние углы и т. д. Нередко в первоисточники понятия V-VI классников входит ряд сугубо личных, малозначительных черт, взятых из зрительного восприятия картин, рисунков, картин на исторические сюжеты: боярин «стар, в шапке и смотрит на царь с неодобрительными глазами», рабовладелец «толстый, хорошо одетый», раб — сгорбленный, усталый, полуголый человек». Таким образом, подростку иногда трудно «оторваться от ясности, ясности образов».

Накопленный подростками жизненный опыт, в том числе бытовые понятия, несомненно, облегчает приобретение знаний, но в ряде случаев даже правильные «житейские» понятия (не говоря уже о неправильных понятиях) могут быть отделены от содержания соответствующих научных понятий, что вызывает некоторые трудности в освоении последнего. Особенно это происходит, когда научная концепция выражена словом, имеющим иное жизненное значение. Например, молодые подростки (при изучении относительных чисел) удивляются и неохотно принимают предположение, что «добавление» отрицательного числа уменьшит сумму. Ведь они из личного опыта точно знают, что «прибавление» означает умножение. На усвоение геометрического понятия «падение перпендикулярно прямой» большое влияние оказывает бытовое понятие «падение», которое многие подростки отказываются понимать. Как «опустить»

перпендикуляр из точки на прямую, проведя линию снизу вверх? Бытовое понятие «вертикаль» отрицательно влияет на усвоение понятия «вертикальные углы». Большинству подростков понятны все вертикальные углы, ось симметрии которых не является вертикальной линией. Наконец, известны факты, что отдельные младшие школьники, обучающиеся в V-VI классах, «модернизируют» исторические понятия, исходя из обыденного значения соответствующих терминов. Кроме того, для подростка характерно весьма заметное, даже быстрое развитие самостоятельности и критического мышления. Это совершенно новая область развития психической деятельности подростка, в отличие от маленького школьника. Под влиянием школьного образования у подростка формируется общий рост самосознания, способности и потребности в самостоятельном мышлении.

Литературы:

1. Брушлинский А.В. Психология мышления и проблемное обучение. – М., 1983.
2. Калмыкова З.И. Продуктивное мышление как основа обучаемости. – М., 1981
3. Крутетский В.А. Лукин Н.С. Психология подростка. – М., 1965
4. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М., 1972
5. Матюшкин А.М. Психология мышления. – М.? 1965
6. . Djumaniyazova, M. X. (2023). Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarning roli. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(3), 16-20.
7. Razakova R. S., Mohida Q., Shahzoda Q. Bog ‘cha yoshi bolalarda nutq taraqqiyoti //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 73-79.
8. Saidmuratova M.B In Children Interest in Reading Books Formation Features <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/299>
9. Познавательное прогнозирование и способности в обучении. – М., 1990
10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2 т. – Т.1. – М., 1989
11. Тихомиров О.К. Психология мышления. – М., 1984
12. Saylaubekovna R. R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 21-24.
13. Raximova E.R., O,smir muloqotidagi psixologik qiyinchiliklar diagnostikasi va korreksiyasi. –Psixol. f.b...PhD dis. Avtorefer – Т.: TDPU, 2023, – 19 b.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 1. January 2024

<http://library.ziyonet.uz/uz/book/127453>

14. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna. (2023). Ta'lim jarayonida o'smirlar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 36–41. Retrieved from

<https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/1165>

15. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna. (2023). O'smirlilik davridagi o'quvchilar tafakkurini o'ziga hos xususiyatlari. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(9), 1242–1248. Retrieved from

<https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/3680>

16. A.R. Ismoilova,. (2022). Aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashda ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning ahamiyati. *Архив научных исследований*, 2(1).
извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2025>



**Research Science and
Innovation House**

**MATN USTIDA ISHLASH-MATN YARATISH KO‘NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH VA MUSTAHKAMLASH OMILI**

Yo‘ldosheva Shohista Baxtiyor qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi
Allayorova Orzugul
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim
Boshlangich ta’lim yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqoladan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va oliy ta’lim bituruvchi kurs talabalari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda matn tuzish ko‘nikmalarini rivojlantishda va nutqini o‘stirish maqsadida foydalanishi mumkun.

АННОТАЦИЯ

Данная статья может быть использована учителями начального образования и студентами выпускных курсов высшего образования в целях развития навыков построения текста у младших школьников и развития их речи.

ANNOTATION

This article can be used by teachers of primary education and students of the graduating course of higher education for the purpose of developing text-making skills and growing their speech in students of a small school age.

KALIT SO‘ZLAR

Milliy mafkura, intellektual salohiyat, o‘quv materiallari, idrok, zehn, tafakkur, o‘yin texnikasi, faollik, matn yaratish, kompetensiya, motiv, tafakkur, pedagogik texnologiya.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Национальная идеология, интеллектуальный потенциал, учебный материал, восприятие, разум, мышление, игровые приемы, активность, создание текста, компетентность, мотив, мышление, педагогическая технология.

KEY WORDS

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

National ideology, intellectual potential, educational materials, perception, mindfulness, thinking, game techniques, activism, Text creation, competence, motive, thinking, pedagogical technology.

Garchi azim daraxt bo'lsa til,

Matn- unda yaralgan hosil.

Millat tafakkurini rivojlantiruvchi, undagi milliy mafkura, ma'naviy barkamollik, intellektual salohiyatni ko'rsatib turuvchi asosiy mezon-tildir. Til barqaror hodisa, nutq esa beqaror- vaqtinchalik, u alohida shaxsning muayyan makon va zamondagi individual-intellektual kursatkichlari: ilmiy-ijodiy tafakkuri, aloqa-aralashuv, ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini kafolatlovchi, xususiy muloqot, ta'sir va aks ta'sir natijasini voqealantiruvchi bosh vosita sanaladi. Insoniyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilmiy manbalarni avlodlarga meros qilib qoldirish uchun birdan—bir, imkoniyat - matn va matn yaratish ilmi bilan shug'ullanishdir. Demak, til imkoniyat, matn esa natijadir, til umumiyliigi, matn esa xususiyliigi bilan farqli, til ijtimoiy muloqot mahsuli, matn-egallangan bilim, ko'nikma va malakalar integrasiyasi, hosilasi, individual tafakkur mahsuli, inson yaratikdarining majoziy ramzi, in'ikosidir.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi, umumiy o'rta ta'lim yo'nalishi, maktab o'qish va adabiyoti o'qituvchilari oldiga ulkan vazifalarni quymokda. O'sayotgan avlodning mustaqil va ijodiy fikr egasi, ixcham va go'zal nutk, sohibi, nutqiy sharoitni to'g'ri baholay oladigan tadbirkor, Vatan taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, ma'naviy barkamol kishilar bo'lib yetishishini ta'minlash- umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb-hunar tizimi o'qish ta'limining bosh maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qish darsini o'rganishdan asosiy maqsad kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san'atidan boxabar, orzaki nutq; hamda matn yaratish ko'nikmalarini mukammal egallagan, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab

yetishtirishdan iborat. O'qishdan Davlat ta'lim standartlari ana shu ta'limiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqsaddan kelib chiqilganda, o'qish ta'limi:

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

– O‘quvchilarning kuzatish, anglash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, alohidaliklarni ajratish, qiyoslash va tasnif qilish layoqatini, mantiqiy tafakkur darajasini o‘stirishga;

- O‘quvchilarning o‘zligini, moddiy borliqni, voqea-hodisalarni, milliy tilning ifoda vositalari orqali idrok etish, hamda o‘z fikri, dunyoqarashi, his-tuyg‘ularini mazkur til imkoniyatlaridan foydalanib, to‘g‘ri, aniq, ravon ifodalay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga;

- yosh respublikamizga ilmiy-ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topa biladigan, chuqur bilimli, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis, turkiy lison durdonalari, milliy kadriyatlarimizni e‘zoz va ehtirom qiladigan, o‘zbek tilini jaxon miqyosiga olib chiqadigan milliy kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari tizimi o‘qish fani oldiga o‘quvchidagi kommunikativ savodxonlik, nutqiy madaniyat, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda mustaqil va erkin ifodalay olishga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ydi. Buning uchun oqish ta‘limi mutaxassislari:

- O‘quvchilarning tevarak-atrofdagi buyum, narsa, hodisalar va ularning ilmiy-ijtimoiy mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirish;

- O‘quvchilarda mazkur buyum va hodisalar orasidagi sabab, shart, oqibat, qarama-qarshi munosabatlar, to‘g‘ri va teskari aloqani aniq farqlash, voqea hodisalarni analiz va sintez qilish, uni ogzaki va yozma holatlarda nutqiy vaziyat taqazosiga ko‘ra to‘g‘ri va o‘rinli tasnif qila bilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- o‘z fikrini erkin, ravon ifodalay olish, o‘z ilmiy iqtidori, bilimi, ularni amaliyotga joriy etish orqali qo‘lga kiritilgan ijobiy natijalarni (nutqiy mahorat, matn yaratish mahorati) boshqalarga ham yetkaza bilish malakalarini rivojlantirish ustida ishlashlari lozim.

Respublikamiz umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qish ta‘limi samarasini oshirish, pedagog hodimlar va o‘qituvchilar jamoasida ilmiy potensialni kuchaytirish, o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlikni, haqiqiy ijodkorlik va izlanuvchanlik ruhiga yo‘g‘rilgan ijobiy-rivojlanuvchi sog‘lom musobaqa muhitini hosil qilish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Xo‘sh, maktab o‘quvchisini o‘quv jarayonining subektiga (ishlovchisi-izlanuvchisi, ixtirochisi), o‘qituvchini esa shu jarayonning boshqaruvchisi (izlanuvchan va ijodkor shaxs)ga aylantirishimiz uchun nima qilishimiz, ishni nimadan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

boshlashimiz, xususan, o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqini DTS talablariga mos ravishda to‘g‘ri, ravon shakllantirishning qanday usul va vositalaridan foydalanishimiz lozim?

- Avvalo, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 30-50-yillarda shakllanib, to hozirgi kungacha ham davom etib kelayotgan an’anaviy ta’lim tizimidagi eskirgan avtoritar usullardan (o‘qituvchi — tushuntiruvchi, o‘quvchi -bajaruvchi) uzil-kesil voz kechishimiz, ongli verbal-kognitiv ta’limning subekti subekt munosabatlari (o‘qituvchi izlanuvchi-yunaltiruvchi, o‘quvchi izlanuvchi-kashf qiluvchi) ni ta’limga joriy etishimiz;

-til o‘qitish metodikasida eng yangi hisoblangan, zamonaviy didaktik vositalar bilan qurollantirilgan, o‘quvchini izlanish va muammolarni yechishga yo‘naltiruvchi, unda ijobiy o‘quv motivlarini hosil qiluvchi o‘quv-multimedia dasturlari, elektron o‘quv adabiyotlari bilan modernizatsiyalashtirilgan ongli verbal-kognitiv ta’lim tizimi (kashfiyot ta’lim tizimi)ga intensiv sur’atda o‘tishimiz;

- metodist olimlarimiz tomonidan tavsiya qilinayotgan tahlim mazmunini takomillashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash sur’atini jadallashtirish, matn yaratish ko‘nikmalarini mustaxdamlash maqsadida modullashtirilgai xususiy texnologiyalarni yaratishimiz (mas.,Uyadosh so‘zlar ystida ishlash orqali o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi..va x.k.);

-o‘qish ta’limi jarayonida matn yaratishga yunaltiruvchi didaktik vositalar: (kompyuter) multimedia INTERNET, elektron pochta xizmatidan foydalanish, yuqori darajaga ko‘tarishimiz;

-muammoli ta’lim va interfaol metodlardan, ta’sir va aks ta’sir usullaridan unimli to‘plamli foydalanishimiz, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi ta’limiy tarbiyaviy, ustoz-shogird munosabatlarini do‘stlik va o‘zaro ijodiy hamkorlik darajasiga olib chiqishimiz;

-berilgan matn ustida ijodiy ishlash bilan boshlangan darsni yangi mustaqil mati yaratish — k a s h f i y o t bilan tugallashga erishishimiz, o‘quvchini ishlovchi, izlanuvchi, kashfiyotchiga, o‘qituvchini esa izlanuvchi

-boshqarushchiga, o‘quvchi iste’dodining xali ochilmagan qirralarini kashf etuvchi, uni muammolar yechimini topish sari yetaklovchi jonkuyar yo‘boshchiga aylintiradi.

O‘qish ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini takminlash so‘z boyligini oshirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, o‘quvchini madaniy muqalot

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

san’atidan xabardor qilish, turli mazmun va o‘quvchini madaniy, ma’rifiy, munshaot matnlari, badiiy-ramziy matnlar ustida ijodiy ishlashga o‘g‘atish, egallangan bilim ko‘nikma malakalar asosida kichik matnlar, manalog va dialoglar tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish va mustakil matn yaratishga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, u ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning eng muhim va zarur omillardan biri sanaladi.

Zero, mustaqil yaratilgan matn - o‘quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqelanishi, tugal bir mazmunning o‘quvchi tomonidan kashf etilishi, yuzaga chiqishidir.

Xulosa qilib aytganda, “matn yaratish” o‘quvchi uchun to‘liq ijodiy izlanish hisoblansa, “matn tuzish” qisman ijodiy izlanishga taalluqli bo‘ladi.

– “Matn yaratish” faoliyati o‘quvchi so‘z boyligi, nutqiy savodxonligi, mustaqil, izchil, o‘rinli fikr ifodalash bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ushbu tadqiqot shu kunning eng dolzarb vazifalaridan biri – umumiy o‘rta ta’lim muassalarida o‘qish ta’limining yangi pedagogik texnologiyalari asosida tashkil etilishni ta’minlash, o‘quvchida mavjud bo‘lgan lug‘at zaxirasi, nutqiy-intellektual qobiliyatini aniqlash, ijodiy tafakkur faoliyatini jadallashtirish, o‘quvchida ravon nutq, mintiqiy fikrlash, fikr mahsulini yozma ravishda to‘g‘ri, izchil o‘rinli ifodalash, egallangan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga bag‘ishlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev „, Yoshlar manaviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus“. „Xalq so‘zi“ gaz. – T., 2019. - № 54 (7284).
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017, 104 b.
3. Abdukarimov H. Innovatsion texnologiyalar va ularning pedagogik mohiyati. Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy- kasbiy barkamol shaxs tarbiyasi: Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari.- Guliston, 2007, - B.67-69
4. Abdullayeva B.S. Boshlang‘ich ta’lim me’zonlari Boshlang‘ich ta’lim. IMJ.- T., 2017- № 4.- B. 14-16.
- 5 Boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.- Jizzax, 2020.- B. 6-14.

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI

Matniyazova Maftuna

UrDPI Pedagogika fakulteti tyutori

Adabiy taxallusi Tog‘ay Murod, asl ismi–sharifi Tog‘aymurod Mengnorov bo‘lgan bu noyob iste‘dod egasi 70-yillari adabiyot maydoniga kirib keldi. Dastlab mayda hikoyalar yozib yurdi. Ularda o‘ziga xos iste‘dod jilolari borligini birov payqadi, birov payqamadi. 1976-yili «Yulduzlar mangu yonadi» degan qissasi «Sharq yulduzi»da e‘lon etildi-yu, birdaniga uning nomi el og‘ziga tushdi, muhokamalarda, maqolalarda asar yilning eng yaxshi qissasi deb e‘tirof etildi. So‘ng birin-ketin «Ot kishnagan oqshom» (1979), «Oydinda yurgan odamlar» (1980), «Momo yer qo‘shig‘i» (1985) qissalari chiqdi. Bu asarlarning har biri adabiyot osmonida go‘yo momoqaldiroqdek yangradi, keng jamoatchilik e‘tiborini tortdi, qizg‘in bahs-munozaralarga asos bo‘ldi. Bu qissalari uchun Tog‘ay Murod Respublika Yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi.

Tog‘ay Murod 1986-1991 yillari «Otamdan qolgan dalalar» romani ustida ishladi, asar 1993- yili dunyo yuzini ko‘rdi. Roman 1994- yili istiqlol davri o‘zbek adabiyotining ilk yetuk namunasi sifatida Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ushbu asarlarining barchasining o‘ziga xos yaratilish tarixi bor, adib bularni shunday xotirlaydi:

«Men o‘rta maktabni bitirib shunday niyat etdim: o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha o‘ylanmayman oila qurmayman, biror ifoda faqat tarixchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko‘zladim: faqat jahon adabiyotini o‘qish. Faqat o‘qish, o‘qish, o‘qish, qo‘l qotib qolmasini uchun mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo‘lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon shuhrat qizg‘anmadim.

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda «Yulduzlar mangu yonadi» nomli birinchi qissamni yaratdim.

Men bu qissam bilan g‘animlarimga:

«Mana men kimman degan bo‘ldim».

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Qissa elchiga manzur bo‘ldi. [1. T. Murod «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. – B. 264-265.]

Adibning o‘zbek dehqonlarining va shaxs hamda o‘tmish fojialari talqin qilingan yana bir romani «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» deb nomlanib, asar 2001 yilda nashr qilindi. Tog‘ay Murod badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan, J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va qator hikoyalarni, E.Seton-Tompsonning hayvonot dunyosi haqida mashg‘ur «Yovvoyi yo‘rg‘a» kitobini mahorat bilan o‘zbekchalashtirgan.

Tog‘ay Murod ijodiy izlanishlarining rang-barang hayotiy materiallar asosida ruyobga chiqqanligi ayniqsa quvonchlidir. Chunki: «Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar, xarakterlar yaratar ekan, u o‘z fantaziyasining bandasi bo‘lib qola olmaydi. Yozuvchi istagidan ustun turadigan qalamining yo‘nalishini belgilab beradigan ma‘lum kuchlar borki, san’atkor ular bilan hisoblashmasdan iloji yo‘q. Shulardan biri hayot mantiqidir» Yozuvchi o‘z qahramonlarining xarakterini ana shu psixologik muhit orqali ochib beradi. Shunday qilib, oddiygina hikoyalardan badiiy kashfiyot yaratadi. Yozuvchi qahramonlarining o‘z dunyosini psixologik dialekti bilan birga beradi. Bularning hammasi T.Murodning mohir yozuvchi bo‘lib shakllanganligidan dalolat beradi. [2.Qo‘shjonov M. Hayot va nafosat. -T.: Fan, 1970. –B. 16.]

Negadir T.Murod o‘zining 2001-yil nashr etilgan «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» degan roman, hikoyalar va maqolalar to‘plamiga hzining har yillarda yozilgan to‘rtta hikoyasini kiritgan. Nega aynan mana shu hikoyalar deb o‘ylab, beixtiyor asarlarning yozilgan vaqtlariga diqqat qilasan kishi. Shunda T.Murodning talabalik davridanoq o‘z hikoyalarda haqiqatni aytishga harakat qilganligini sezish mumkin. «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» romani XX asrdagi o‘zbek xalqi ko‘rgan azob-uqubatlari, dardlari va qayg‘uli voqealarini aniq va ochiq-oydin ko‘rsata olgan asardir. Shu kitobga kiritilgan hikoyalar roman voqealariga adabiy - estetik, ijtimoiy - siyosiy ma‘nosiga qarab tartiblashtirilgan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. Bizning fikrimizcha «Bobosi bilan nevarasi» (1966), «Kuzning bir kunida» (1967), «Ku-ku-ku...» (1970) va «Er-xotin» (1970) [3. T.Murod «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» -T.: Sharq, 2001. –B.176.] hikoyalari garchi romandan oldin yozilgan bo‘lsa ham, unda aytilmay ketgan ba’zi joylarini to‘ldirib turgandek... T.Murodning bu hikoyalarga nazar tashlar ekanmiz, unda qa’ramonlar kayfiyatini yaqqol sezish mumkin. Uning hikoyalarda inson shaxsiyatiga diqqat-e’tibor kuchliligi bilan birga ruhiy tahlillar ancha terandir. Tog‘ay

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Murod hikoya yaratar ekan, asarlarining sodda, ixcham va mazmundor bo‘lishini ta’minlaydi. Ayrim hikoyalarida portret, peyzaj tasvirlari deyarli kuzatilmaydi ham bor narsalarni xarakterlar va ruhiy tahlillarga yuklaydi. Uning asarlarining tematikasi ham yangi. Demak, u yaratgan asarlar badiiyligi va yangi bir g‘oya, yangi bir masalalarni ko‘tarishi bilan qimmatlidir. T.Murod tasvirlagan voqealar, xarakterlar qismati bir-biriga mantiqan ham mos tushadi.

T.Murod ijodidagi asarlar o‘zining tili va yozilish uslubi bilan ham bosh asarlardan keskin farq qiladi. «Qisman mumtoz adabiyotimizdagi shaxs yo‘lini, ko‘proq xalq dostonlaridagi nasriy ifoda hikoya qilish yo‘sinlarini eslatadigan, aslida faqat Tog‘ay Murodgagina xos XX asr zamonaviy o‘zbek tili yangi o‘zbek nasri mahsuli bo‘lmish bu xil badiiy matn adabiyotimizda tamomila yangi, noyob hodisa. Matndagi gaplarning tuzilishi tarzi, ohangi, so‘z va jummalarning takrorlanishi xalq tilining rang-barang tovlanishi, nozik lutf, qochiriqlar, goh xazin kayfiyat goh tabassum uyg‘otuvchi ifodalar, birgina jumla, birligida tanbeh orqali butun boylarga tatigulik voqei drama, ruhiy holat-kechinmalarining jonli gavdalantirilishi-bularning barchasi yetuk she’riyat, dostonchilik tajribalarini yodga tushiradi» [4. Karimov I. va boshqalar «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –B. 529.]

O‘zbek nasrining an’anaviy dasturini davom ettirib, yangicha ruhdagi asarlar yaratish T. Murodning oldiga qo‘ygan maqsadi edi. Ularda yozuvchi nozik psixologizmni, mavzuning kengligi, voqealar tor bo‘lgan bilan, mazmuni boyligi hayotga mosligi, hikoyalarida shaxs muammosi, inson taqdiri, avlod, kelajak qanday bo‘ladi? kabi masalalarni ko‘tarib bera oldi. U o‘zining 60-70 yillarda yaratgan hikoyalarida xuddi shu narsalarni e’tirof etib, inson taqdiri, uning tortishuvlari, xarakter xususiyati orqali shu davrga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qaray oldi va shularni ayta bildi.

Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasi halollik va mardlikni tarannum etuvchi asarlardan biri bo‘ldi. Qissa qahramoni Ziyodulla kal elning mashhur chavandozi. Chavandozlar orasida ham o‘zining halolligi bilan tanilgan. U g‘iromlik ro‘y bersa, u to‘g‘risini aytadi. To‘g‘rilik Ziyodulla kalning qonida bor. Ziyodulla kal bir to‘yda o‘yinga chilvir solgan chavandozlarni ko‘rib nafratlanadi: «Birodarlar, chavandozlar nimaga etagini qoqib ketayapti? Adolatga! Nimaga tupurib ketayapti? Adolatga! Kimdan arazlab ketayapti? Adolatdan! Bir to‘da nomard imonsizga achchiq qilib, adolatni o‘tga tashlab ketayapti!» lekin Ziyodulla chavandoz adolat osmonda deguvchilarga qarata bunday deydi: «Yo‘q

birodarlar, adolat yerda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorishib yotibdi! adolatni kim bundayin xor qilayapti? Biz-o‘zimiz!» albatta, Ziyodulla chavandoz aytganidek, adolat haqida ko‘p gapirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Tog‘ay Murod yaratgan badiiy obrazlar kitobxon qalbidan chuqur joy egallaydi, kitobxonda obrazga nisbatan iliqlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Har qanday badiiy asar ham asosan ma’lum bir haqiqatni ruyobga chiqarish uchun yoziladi. Shu bilan birga asar saviyasini oshiradigan ham, tusharidigan ham uning tilidir. Tili ta’sirli bo‘lmasa qahramonlar vapersonajlar ruhiyoti va xarakter mantig‘iga mos tushmasi unday asarda obraz ham psixologizm ham yaxshi ochilmaydi. M.Gor’kiy aytganidek, «Til badiiy adabiyotda xarakterlar va manzaralar yaratish qurolidir». [5. M.Gorkiy «Literaturno-kriticheskie stati. –M.: 1937. –S. 584.]

Bu narsalar T.Murod ijodida xususan hikoyalarida yaxshi ifodalangan. U nima aytmoqchibo‘lsa, shuni aniq ayta biladi. XX asrning 70-yillarda ham o‘z fikrini o‘z so‘zi bilan oshkor eta oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Murod «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. –B. 264-265.2.
2. Qo‘shjonov M. Hayot va nafosat. -T.: Fan, 1970. –B. 16.
3. T.Murod «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» -T.: Sharq, 2001. –B.176.
4. Karimov I. va boshqalar «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –B. 529.
5. M.Gorkiy «Literaturno-kriticheskie stati. –M.: 1937. –S. 584.

**Research Science and
Innovation House**

Tarbiyachining nutq madaniyati va unga qo‘yiladigan pedagogik talablar

Ro‘zimboyeva Sevinchoy Sanatbek qizi

Urganch davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining nutq madaniyati va unga qo‘yiladigan pedagogik talablar shuningdek, nutqining aniqligi, to‘g‘riligi, ifodaviyligi, lug‘at boyligi, nutqidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari xususida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlari: tarbiyachi, nutq, ohang, og‘zaki nutq, nutq o‘stirish, nutq madaniyati, so‘zlashuv, muloqot, nutqning sofliqi, aniqligi, to‘g‘riligi, boyligi, ifodaliligi.

Abstract. This article describes in detail the speech culture of preschool educators and the pedagogical requirements for it, as well as the accuracy, correctness, expressiveness, vocabulary, speech defects and ways to eliminate them.

Key words: educator, speech, tone, oral speech, speech development, speech culture, speech, communication, purity, accuracy, correctness, richness, expressiveness of speech.

Nutq madaniyati - bu fikrlarni to‘g‘ri ifodalay olish, ya’ni fikr birdirish jarayonida nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni inobatga olgan holda tilning barcha vositalaridan (til vositalaridan, shuningdek, ohang, pauza, tembr, urg‘u, intonatsiya, leksik zaxira, gapning grammatik tuzilishidan) to‘g‘ri foydalangan holda, bayon qilinayotgan mavzuga mos tarzda gapirishdan iboratdir. Nutq madaniyati — bu bayon qilinayotgan fikr mazmuniga mos holda tilning barcha vositalaridan (tovush, ohang, so‘zning leksik ma’nosi, intonatsiya, grammatik shakllar, urg‘u, pauza) to‘g‘ri va o‘rnida foydalana olish demakdir. Nutqning tovush madaniyati nutq madaniyatining ajralmas bir qismi hisoblanib, og‘zaki va yozma ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Tarbiyachi o‘sib kelayotgan yosh avlodni xalqimizga munosib farzand, yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashdek muhim, mas’uliyatli shu bilan birga faxrli vazifani bajaradi. Shunday ekan tarbiyachi pedagoglar o‘z ishiga vijdonan, mas’uliyat bilan yondashishi, pedagogik faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borishi va o‘z ustida tinimsiz izlanishlar olib borishi lozim. Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

mashgʻulot jarayonida, oʻyin faoliyatida, nutqiy muloqotlarda, birgalikdagi mehnat jarayonida va ular bilan boʻladigan muomalada taʼsir koʻrsatadi. Tarbiyachi har bir bolani diqqat bilan kuzatishi, uning shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori, qobiliyatlarini bilishi, bolalarning ish natijalarini toʻgʻri, haqqoniy baholashi va ularga oʻz vaqtida yetarlicha yordam, yoʻnalish koʻrsata olishi shuningdek, bolaning oiladagi taʼlim-tarbiyasi bilan qiziqishi, ota-onalar bilan toʻgʻri hamkorlik oʻrnata olishi lozim. Hozirgi kunda maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachilariga qoʻyiladigan muhim talablardan biri taʼlim-tarbiyaviy jarayonni toʻgʻri tahlil qilishi va kasbiy malakasini boyitib borishi hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiyachi shaxsiga qoʻyiladigan yana bir muhim talablardan biri uning nutq madaniyatiga ega boʻlishidir. Nutq madaniyati — bu tarbiyachida boʻlishi shart hisoblangan sifatlardan biridir. Tarbiyachi nutq madaniyatiga ega boʻlishi uchun oʻz nutqida quyidagi xususiyatlarni aks ettirishi lozim: nutqning toʻgʻriligi; nutqning aniqligi; nutqning sofligi; nutqning ravonligi; nutqning ifodaliligi; nutqning boyligi.

— **Nutqning toʻgʻriligi** — bu nutqning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Agarda nutqning tuzilishi toʻgʻri boʻlmasa, nutqning aniqligi, mantiqiyliigi, izchilligiga ham putur yetishi mumkin. Shunday ekan, tarbiyachi bolalar nutqining toʻgʻriligiga alohida eʼtibor qaratishi va nutqidagi kamchiliklarni aniqlab, toʻgʻri bartaraf qila olishi lozim.

Tarbiyachining nutqi toʻgʻri boʻlsa, soʻzlarni aniq, toʻgʻri, tushunarli tarzda talaffuz qilsa, bolalar nutqni muvaffaqiyatli oʻzlashtira oladilar.

— **Nutqning aniqligi** — bu soʻzning ifodalanayotgan voqelikka nisbatan muvofiq kelishi hisoblanadi. Bolalar tarbiyachidan soʻzlarni aniq, toʻgʻri talaffuz etishnigina oʻrganib qolmasdan, balki eshitgan ertak va hikoyalarini mazmunan aniq aytib berishga, tevarak-atrofni kuzatish orqali olgan taassurotlarini aytib berishga, oʻz fikrlarini ketma-ketlik bilan izchil tarzda ifodalay olishga oʻrganadilar.

— **Nutqning sofligi** — deganda eng avvalo, uning adabiy til meʼyorlariga mos tarzda ifodalanishi tushuniladi. Tarbiyachi oʻz nutqning sofligiga erishishi uchun nutqida mahalliy soʻzlarni qoʻllamasligi, jargon soʻzlarni ishlatmasligi, soʻz urgʻularini toʻgʻri ishlatishi zarur.

— **Nutqning ifodaliligi** — yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar tizimli ifodalangan, har bir soʻz, gap, ibora maqsadga mos ravishda ishlatiladigan nutqni tushunamiz. Tarbiyachi nutqning ifodaliligiga fikrlarini faqat soʻzlar orqaligina emas, balki nutqning ifodaviy vositalaridan (pauza, tempr, ovoz kuchi, ritm, urgʻu va

hokazolar) to‘g‘ri foydalanish orqali erishishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga ertak, hikoya, rivoyat, she‘r o‘qib berish jarayonida nutqning ifodaviy vositalaridan o‘rinli foydalansa, bolalarning asar mazmunini yaxshi tushunib olishlariga yordam beradi. Tarbiyachining bir xil ohangdagi nutqi bolalarni zeriktiradi va bolalarda ertak, hikoyalarning mazmuniga bo‘lgan qiziqishini susayishiga olib keladi. Bola bunday nutqni tinglashdan tez zerikadi va boshqa narsalarga chalg‘iy boshlaydi, so‘ngra tarbiyachining nutqiga quloq solmay qo‘yadi. Shunday ekan, tarbiyachi bolalarga to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya berishi, badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg‘otishi uchun avvalambor o‘z nutqi ustida ishlashi, nutqidagi kamchiliklarni aniqlab, bartaraf etishi lozim.

— **Nutqning boyligi** — so‘zning turli sinonimlaridan to‘g‘ri, o‘rinli foydalana olish va nuqtda turli iboralardan, jumalardan foydalanish, yangi so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash orqali yuzaga keladi. Tarbiyachi so‘zlardan to‘g‘ri, o‘rinli foydalana olishi, bolalar so‘z boyligini muntazam tarzda aniqlab, so‘z boyligini kengaytirib borishi lozim.

Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash — bu uning o‘z kasbiy tayyorgarligini belgilovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Taniqli pedagog, bolalarni ona tiliga o‘rgatish uslub va uslubiyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo‘yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I. Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak yuksak baho berib, shunday degan edi: “Bog‘chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog‘bon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g‘oyat samarali va nihoyatda kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan hamma narsalarni o‘zida birlashtiradigan bo‘lishi kerak. Bog‘bonning tili bekam-u ko‘st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo‘lishi lozim”.¹ Har bir tarbiyachi, pedagog o‘z nuqiga qo‘yiladigan pedagogik talablarni yaxshi bilishi hamda nutqidagi mavjud kamchiliklarni aniqlab, to‘g‘irlab borishi kerak. Tarbiyachi o‘z nutqining ravonligi, ifodaliligi ustida ishlashda nutqning intonatsion vositalaridan to‘g‘ri foydalanishiga e‘tibor qaratishi ya‘ni nutqida urg‘ularni to‘g‘ri ishlatishi, ovoz tempini va kuchini o‘zgartirish bilan so‘zlarning mazmunini ajratishi, to‘xtam, pauza, ma‘lum vaqt ichida aytiladigan so‘zlar miqdori, nutq tempi va ovoz balandligini ma‘lum joyida ko‘tarib, ma‘lum joyida pasaytirib aytishni to‘g‘ri mashq qilishi lozim. Nutqda intonatsiya va ohangni to‘g‘ri qo‘llash

¹ “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida pedagog tarbiyachining nutqiy faoliyatini o‘ziga xosligi” Norqo‘ziyeva M.A. maqola

nutqni jonli, jo'shqin qiladi va fikrni to'liq, tugallangan tarzda bayon qilishga yordam beradi. Tarbiyachi o'z lug'atini, uning grammatik tomonini badiiy, ilmiy adabiyotlarni doimiy ravishda o'qib, o'rganib borish jarayonida boyitadi va takomillashtirib boradi. Biroq tarbiyachi badiiy adabiyotlarni o'qib, o'rganish davomida uning mazmuniga, yangi so'zlargagina ahamiyat qaratib qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochishda tilning qaysi vositalaridan foydalanganligiga, qaysi so'z va grammatik shakllarni ishlatganligiga, materialni qay darajada ifodalaganligiga ham e'tibor qaratishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jamiyatimizda tarbiyachi va pedaglarning nutq madaniyatini shakllantirishda yuqorida ko'rsatilib o'tilgan vazifalar to'g'ri olib borilsa va rioya qilinsa jamiyatda tarbiyachilar o'z o'rnini va mavqegini topadi. Tarbiyachi nutqi qanchalik tushunarli, mazmunan aniq va to'g'ri ifodalansa, tarbiyalanuvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiya sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Tarbiyachi o'z nutqidagi adabiy jihatlarga, nutqining jarangdorligi, tushunarligi, aniqligi va ravonligiga e'tibor berishi ta'lim olayotgan har bir bolaning so'z boyligi rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shu sababli, har bir pedagog o'z nuqiga alohida e'tibor qaratishi va o'z nutqi ustida muntazam ravishda ishlab, takomillashtirib bormog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog tarbiyachining nutqiy faoliyatini o'ziga xosligi” Norqo'ziyeva M.A. maqola
2. “Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutq madaniyati va unga qo'yiladigan pedagogik talablar” Turg'unboyeva N. 2022-yil
3. “Tarbiyachining nutqi bolalar uchun namuna” Nuritdinova G..H. maqola

**Research Science and
Innovation House**

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sharipov Jaxongir Galiyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha boshlang'ich yo'nalishi stajyor o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati va zaruriyati, mazmuni va mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan.

Annotatsiya: В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование речевой культуры у студентов, а также отражается значение и необходимость, содержание и сущность, а также конкретные характеристики факторов, влияющих на формирование речевой культуры у студентов.

Annotatsiya: This article examines the factors influencing the formation of speech culture among students, and also reflects the meaning and necessity, content and essence, as well as specific characteristics of the factors influencing the formation of speech culture among students.

Tayanch so'zlar: Ta'lim, tarbiya, talaba-yoshlar, nutq, qobiliyat, ijodkorlik, muloqot, kognitivlik, kommunikativlik, xotira, diqqat, dunyoqarash, salomatlik, sog'lom turmush tarsi, ma'naviy-ahloqiy barkamollik, shaxs, yetuk mutaxassis, ma'rifat madaniyat.

Ключевые слова: Образование, обучение, студенты, молодежь, речь, способности, творчество, общение, познавательные, коммуникативные, память, внимание, мировоззрение, здоровье, здоровый образ жизни, духовно-нравственная целостность, личность, зрелый специалист, просвещенная культура.

Key words: Education, training, students, youth, speech, ability, creativity, communication, cognitive, communicative, memory, attention, outlook, health, healthy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

lifestyle, spiritual and moral integrity, personality, mature specialist, enlightened culture

O‘sib kenlayotgan bola shaxsining madaniyati uning axloqi, odobi, xulqi, insoniylik sifat va fazilatlari bilan belgilanadi. Bolada shakllanadigan nutq madaniyati madaniy, aqliy, xuquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi va tarkib topadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida bola shaxsining madaniyatlilik darajasi va ko‘rsatkichlari hamda ulardagi shaxsiy sifat va fazilatlarni kamol topishiga, kelajakda yetuk inson sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga imkon beradi. Demak, bola shaxsida madaniyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. U egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar ta‘sirida ro‘yobga chiqadi. Madaniyat - jamiyatning muayyan a‘zosi ya’ni bola shaxsining turli faoliyati (o‘quv, o‘yin, mehnat) jarayonida to‘plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi sanaladi.

Ijodkor pedagog bola shaxsining nutq madaniyatini shakllantirishda orttirilgan boy tajribalar bilan bir qatorda xorij tajribalaridan ham kengroq foydalanishga e‘tibor qaratishi maqsadga muvoffiq sanaladi. Bunda tarbiyachi - pedagogning tashabbuskorligi, kreativligi, kamunikativligi, kognitivligi va reflektiv yondashishi natijasida bola shaxsi ajdodlar tarixi va madaniyati, adabiyoti, san’ati, an’analari va urf-odatlar haqida chuqur bilim egallaydi. Madaniyatlararo kompetensiyalarni o‘rganish orqali talabalarning davlatlararo madaniy merosiga bo‘lgan qiziqishi va salohiyati oshadi. Til - aloqa vositasi bo‘lsa, nutq - aloqa shaklidir. Inson hayotida har ikkisinin ham o‘rni beqiyosdir. Nutq shaxslararo muloqotni ta‘minlovchi vositadir. Inson dunyoga kelibdiki, atrof-muhitda u bilan birga bo‘lgan insonlar bilan muloqot jarayonida bo‘ladi. Aslini olganda bu muloqotning poydevori ona qornida shakllanadi. Bola ona qornida 3 oylik bo‘lganida uning yuragi ura boshlaydi. Aynan shu davrda bola onaning psixologik holatini his qiladi hamda tovushlarni eshitadi. Bu davrda onaning bolasi bilan muloqot qilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shaxs tarbiyasining negizi ham onaning homiladorlik davriga borib taqaladi. Bu holat olimlar tomonidan ham o‘z isbotini topgan. Shu mavzudagi - 193 - turli rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Rivoyat qilishlaricha , bir donishmandning oldiga 6 oylik bolani tarbiyalab bering, deb olib borishadi. Shunda donishmand so‘raydi, “Bolangiz necha oylik bo‘ldi?” desa. “ Bolamiz 6 oylik bo‘ldi “ deb javob qaytarishadi. “ Bola tarbiyasiga 6 oy kechikibsizlar” deb javob beradi, donishmand. Shunday ekan, biz tarbiyani ona qornidan boshlashimiz

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

zarur bo‘lgani kabi, muloqotni ham shu davrdan boshlashimiz lozim. Bu muloqot jarayoni u dunyoga kelgach, alla orqali bevosita olib boriladi.

Bola tug‘ilgandan so‘ng, ona o‘z mehrini alla ohanglariga tushirib, bolasini allalaydi, ovutadi, butun dil isxorlarini eshilib sochilib kuylaydi. Bola alla orqali birinchi navbatda onasini muhabbatini, mehrini sezadi, tovushlar va kuy bilan tanishadi, orom olib yotadi. Ammo bugungi kunda dilni xira qiladigan bir holat borki, aksariyat yosh onalar bolalariga alla aytishmaydi, yoxud alla aytishni bilishmaydi, go‘yoki eskicha qarash qabig‘ida ish tutadi. Oqibatda buning salbiy ta‘siri yillar o‘tgach, namoyon bo‘ladi. Alla bolada nutqning tezroq vujudga kelishiga yordam beradi. Masalan, alla ko‘p eshitgan bolalar, beshikda yotgan paytida onasi aytgan alla tembriga mos ravishda tovushlarni chiqarib o‘zlariga-o‘zlari alla aytadilar. Bu o‘z-o‘zidan bolada tovushga taqlidchilikni vujudga keltirib, muloqotga kirishishiga imkon yaratadi. Psixolog olimlarning fikricha, bolani besh-oylikdan boshlab nutqni tushunishga o‘rgata boshlash kerak. Buning uchun bolaga, biror predmetni nomini bir necha marta aytib, takror takror eslatib ko‘rsatish kerak. Bu holat bir necha marotaba takrorlangach, keyingi safar shu predmetni ko‘zi bilan qidira boshlaydi. Bu narsa bolaning kattalar nutqiga tushuna boshlashini bildiradi. Bola nutqini shakllantirishda nafaqat muloqot qilish balki, ularda sensor motorikani shakllantirish ham, samarali natija beradi. Bolada yirik va mayda motorikalarni rivojlantirish, miya faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, nutqining rivojlanishiga, tafakkur, idrok, xotiraning shakllanishiga motivatsiya beradi. Bola nutqining noto‘g‘ri shakllanishi va buzilishining yana bir sababi, ikki tilda so‘zlashuv muhitidir. Ayrim ota-onalar farzandini ikki tilni baravar o‘rganishini xohlaydilar va o‘z ona tilida ravon so‘zlay olmagan bolalariga boshqa xorijiy tillarni o‘rgatishga harakat qilishadi. Natijada o‘z ona tilining grammatik qurilishini yaxshi bilmagan bola, o‘zga tilni ham mukammal o‘zlashtira olmaydi, bola nutqida ikki til qorishmasi yuzaga keladi. Na, u tilda na bu tilda aniq va ravon gapira olmaydi. Yoki ota-onalar va pedagog tarbiyachilar bola nutqini rivojlantirishda aniq rejali yondashishi kerak bo‘ladi.

Jadidchi olimlarda Mahmudxo‘ja Behbudiyning shunday so‘zlari bor: “ Avval biz musulmon bo‘laylik, o‘z o‘zbek tilimizni bilaylik, ana undan keyin ikkita emas, to‘rtta tilni o‘rganaylik.” Bu til o‘rganishga nisbatan sharqona qarashning namunasi bo‘lsa, g‘arbda ham til o‘rganishga nisbatan bir qancha fikrlar mavjud.

Y.I. Tixeyeva o‘zining ilmiy qarashlarida, bolalarni o‘qitishda dastlab o‘z ona tilisini o‘rgatish, uni mukammal o‘zlashtirishini maqsadga muvoffiq deb hisoblaydi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda, Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda oila hamkorligi nihoyatda muhimdir. Bunda tarbiyachi-pedagog bolalarning ota-onasi bilan muloqotda bo'lishi kerak. Pedagog bolaning psixologik va fizologik holatini hisobga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishi lozim. O'z-o'zidan buni qanday amalga oshirish mumkin degan savol tug'iladi. Avvalambor, tarbiyachi bola bilan - 194 - do'stona munosabatda bo'lishi, uning ehtiyoji nimada ekanligini bilishi kerak. Bolani psixologiyasi va fizologiyasini o'rgangach, muammoning yechimini ham shunga qarab izlaydi. Keyingi bosqichda, metodlardan foydalangan holda, bolaning nutqidagi nuqsonini yo'qotishga kirishadi, uni so'zlashga o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lganligi sababli, o'yin davomida bolani to'g'ri talaffuzga tiniq gapirishga, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri qurishga o'rgatiladi. Bolalar nutqining buzilishiga sabab bo'ladigan yana bir omil bu- badiiy til va sheva o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Pedagogga qo'yilgan talablarga ko'ra, pedagog o'z nutqida, jargonlardan, shevadan foydalanishi qat'iyan man etiladi. Shu sababli tarbiyachi adabiy tilda gapirishi maqsadga muvofiqdir. Biroq shu yerda yana bir ziddiyat kelib chiqadi. Bola pedagogning nutqi orqali badiiy tilda so'zlashishni o'rgandi, vaholanki oilada shevada muloqot qilish kuzatiladi. Bu bolada ikkilanishni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda pedagogning ham shevada so'zlashishi muammoga yechim bo'la olmaydi. Keyinchalik maktabga chiqqandan so'ng ham qiynaladi. Chunki, bola o'qiyotgan adabiyotlar badiiy tilda yozilgan bo'ladi. Bu holat yuz bermasligi uchun, bola bilan imkon qadar badiiy tilda gaplashish ko'cha so'zlardan foydalanmaslik muhim hisoblanadi. Bunda mas'uliyat ham ota-onaning ham tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Bolalarni badiiy tilga o'rgatishda ertaklar, she'rlar qo'shiqlardan foydalaniladi. Bu bolalarda badiiy til savodxonligini to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Ba'zan ko'z ilg'amas, arzimas bo'lib ko'ringan xatoliklar katta muammolarning ildiz otishiga imkoniyat yaratadi. Nutq deganda biz faqatgina ravon so'zlashni emas, balki chiroyli, emotsiyalar bilan so'zlashni inobatga olishimiz kerak. Shu bilan birgalikda, odob doirasida, madaniyatli muloqot qilishni ham o'rganishimiz va o'rgatishimiz lozim. Farzand tarbiyasi haqida so'z borganda, biz onani va pedagogni ma'sul qilib ko'rsatamiz, biroq bu borada otaning o'rnini ham beqiyosdir. Masalan, uzoqqa bormay, hayotiy misollardan oladigan bo'lsak, ayrim otalar o'g'il farzandlariga so'kinish so'zlarini o'rgatishadi va bola buni o'rganib takrorlaganda kerilib xursand ham bo'lib qo'yishadi. Lekin bu birinchidan, bola nutqida aytadigan doimiy so'zga aylanadi va o'z tengqurlari hamda o'zidan kattalarga ham qaytaradi. Ikkinchidan,

so‘kinish bilan muloqot qilish bola tarbiyasiga juda salbiy ta‘sir ko‘rsatib, keyinchalik bolada axloqiy me‘yorlarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Buning oldini olmaslik, qadriyatlarning toptalishiga hamda axloqsizlikning tup qo‘yib, palak yozishiga imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bespalko, V.P. O vozmojnostyax sistemnogo podxoda v pedagogike / V. P. Bespalko // Sovetskaya pedagogika, 1990. - № 7. - S. 59 – 62.
2. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas‘ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a‘zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 14. // Xalq so‘zi. 2016 yil 15 dekabr. – № 247. – 2 b.
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas‘ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a‘zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

**Research Science and
Innovation House**

**ДЕТСКИЕ ФОБИИ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ И ПУТИ ИХ
РЕШЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

**Преподаватель Ургенчского государственного педагогического
института**

Каримова Фариды Наильевна

Магистр Ургенчского государственного педагогического института

Саитназарова Уллибиби

Аннотация

Данная статья посвящена актуальности фобии у детей дошкольного возраста. В ней представлены описание фобии, их возникновение и классификации, которые положительно и отрицательно влияют на жизнь детей, а также при помощи педагогических методов, средств и приёмов учитывая индивидуальные особенности и потребности ребёнка избавиться от детских фобий.

Ключевые слова: Фобия, чувство, педагогический метод, реакция, индивидуальный подход, доверительные отношения, привыкание, релаксация, ассоциирования, игровой подход, творческий метод, наблюдение.

Эмоция каждого ребёнка может означать страх, и за этим стоит инстинкт самосохранения. И каждый из детей испытавший в своей жизни ситуации приводящие к стрессу, будет испытывать страх. Страх - естественное чувство, сильное, распространенное и весьма важное для детей и взрослых. Страх проявляется в неприятном эмоциональном и физическом ощущении в ответ на какую-либо угрозу, существующую в реальности, мыслях или воображении. Основа страха наш инстинкт самосохранения, желание уберечься от опасностей.

¹

Фобия у детей представляет собой чрезмерный и необоснованный страх, который вызывает сильные эмоциональные реакции и может привести к избеганию определенных ситуаций, объектов или мест. Это состояние может

¹ Детские страхи. Каббалистическая психология: набор инструментов по преодолению страхов. Издательство Laitman Kabbalah Publishers, 2010. 120 с.

серьезно ограничивать повседневную жизнедеятельность ребенка и вызывать значительные душевные страдания.

Американские психиатры считают, что существует 367 видов различных фобий и им подвержены 4% всего взрослого населения нашей планеты. Ту или другую фобию испытывает каждый четвертый ребенок на Земле.² Фобии у детей бывают различными и могут влиять на их образ жизни и поведение. Примеры фобий у детей:

1. Темная комната или темнота: у детей может вызывать тревогу и страх;
2. Фобия животных: например, боязнь собак, пауков, змей или насекомых;
3. Страх перед поездками на транспорте, таких как автомобиль, самолет или поезд;
4. Фобия социальных ситуаций: сильный страх перед выступлениями в обществе (ребёнок не может рассказать стих при зрителях), общением с новыми людьми или общественными мероприятиями;
5. Фобии медицинских процедур. Некоторые дети испытывают страх перед приемом у врача, инъекциями, а также перед лечебными процедурами. (начинают истерить и плакать при виде медицинских инструментов и персоналов в белых халатах);
6. Фобии звуков: дети могут реагировать на громкие звуки, гром, пушки, сирены и другие звуки, вызывая панику или беспокойство, что может в последствии вызвать плачь или истерику;
7. Фобии воды: страх перед водой, купанием, плаванием и процедурами водных видов спорта.

Причинами возникновения фобий у детей служат:

- Генетические факторы: наследственная предрасположенность к страхам и фобиям.
- Травматические события: негативные или пугающие события в прошлом, которые могут привести к формированию страхов.
- Негативный опыт: негативный опыт в прошлом, связанный с конкретным объектом или ситуацией, вызывающей страх.
- Избыточная защита: недостаток опыта ситуации, что может усилить страх.

² Светлана Геннадиевна Зубанова, А. С. Зубкова
Детские страхи

Отличием детского страха от взрослого является то, что детские страхи носят временный характер, и обычно проходят с возрастом.

Причиной детского страха являются возрастные особенности развития³.

Профилактика фобий у детей дошкольного возраста играет важную роль в обеспечении их эмоционального благополучия. Вот несколько методов и стратегий, которые могут помочь в профилактике фобий у детей:

Сознательное формирование позитивных ассоциаций. Проведение различных мероприятий, игр и упражнений, направленных на позитивное восприятие тех объектов или ситуаций, которые могут стать источником страха. Например, путем ассоциации определенных событий или объектов с чем-то приятным и безопасным.

Включение в разнообразные социальные сценарии. Социальная интеграция и включение детей в разнообразные общественные среды могут помочь им привыкнуть к различным аспектам жизни и снизить вероятность возникновения страхов.

Открытое обсуждение эмоций и чувств. Сознательное создание открытой атмосферы для обсуждения эмоций и переживаний может помочь детям выражать свои страхи и проблемы, что в свою очередь способствует пониманию и поддержке со стороны взрослых.

Позитивный образец со стороны взрослых. Педагоги и родители могут стать позитивными образцами истинной безопасности в различных ситуациях и реагировании на стресс, что укрепляет эмоциональную стабильность у детей.

Сочетание игровых и педагогических методик. Использование игровых методик, которые обучают детей разрешать свои страхи через игру, в сочетании с адаптированными педагогическими методами и техниками, способствующими пониманию и обработке эмоций

Создание безопасной и поддерживающей образовательной среды. Обеспечение стабильной и безопасной образовательной среды способствует уменьшению уровня тревожности и страхов у детей, создавая условия для уверенного и благополучного развития.

Эти методы и стратегии представляют лишь небольшую часть подходов, которые могут помочь в профилактике фобий у детей дошкольного возраста.

³ Колпакова А. С., Пронина Е. В. Детские страхи и их причины у детей младшего школьного возраста // Альманах современной науки и образования. — 2014. — № 4 (83). — С. 83

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Важно помнить, что профилактика должна быть тщательно адаптирована под индивидуальные особенности каждого ребенка и контекст их окружения.

